

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

*Qo'lyozma huquqida
UDK*

AMONOV MEHROJIDDIN O'ZBEKOVICH

**TASAVVUF TA'LIMOTIDA MUHAMMAD ISLOM SHAYX
KARRUXIYNING TUTGAN O'RNI**

**5A220204 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari
mutaxasisligi**

*Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertasiya*

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga ruxsat
berildi.

“Tarixshunoslik va manbashunoslik va
tarixiy tadqiqot usullari” kafedrasi
mudiri _____ t.f.d, prof. I.M.Saidov

Ilmiy rahbar: _____ t.f.n, dots. B.E.Ergashev

M.O'.

SAMARQAND – 2011

MUNDARIJA

KIRISH	3
---------------------	---

I – BOB Tasavvuf ta’limoti va uning o’ziga xos xususiyatlari

1.1. <i>Markaziy Osiyoda tasavvuf ta’limoti va uning o’ziga xos xususiyatlari</i>	18
1.2. <i>Muhammad Islom shayx Karruxiyning hayoti va ilm tahsili</i>	37

II B O B XVIII-XIX asrlarda Markaziy Osiyoda ijtimoiy va ma’naviy –madaniy hayot

2.1. <i>XVIII-XIX asrlarda Markaziy Osiyodagi ijtimoiy–siyosiy va ma’naviy –madaniy, diniy hayotda Muhammad Islom shayx Karruxiy va uning izdoshlari faoliyati</i>	52
2.2. <i>Tadqiqotga doir qo’lyozma manbalarning ta’lim – tarbiyaviy ahamiyati</i>	58

X U L O S A	65
--------------------------	----

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar	69
--	----

Kirish

Istiqlol yuksak ilohiy ne'mat sifatida nafaqat turmush – tarzimizga balki, madaniy – ma'naviy hayotimizga ham teran kirib bormoqda. Yurtdoshlarimizni barkamol shaxs qilib tayyorlash yo'lidagi sa'y harakatlar boshida respublikamiz prezidenti Islom Karimovning turganligi va axloqiy – ma'naviy tarbiyaning davlat dasturi maqomiga ko'tarilishi ham mustaqillik sharofati hisoblanadi. Mustaqillik sharofati tufayli qatag'onga uchragan an'analarimiz, islam dini va tasavvuf, she'riyat va tabobat, ularning tarix va badiiy adabiyotga ta'siri masalalarida ochiq oydin mushohada yuritish imkoniyati tug'ildi. Shuning uchun bu jahhadagi ishlarimizda Yurtboshimizning quyidagi ko'rsatmalari g'oyaviy asos vazifalarini o'tayotir: «... Xalqimiz asrlar osha yashab kelgan an'analar, urf – odatlari, tili va ruhi negiziga qurilgan milliy mustaqillik mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar bilan mahkam uyg'unlashgan holda kelajakka ishonch tuyg'usini odamlar qalbi va ongiga etkazish, ularni vatanga muhabbat insonparvarlik ruhida tarbiyalashi, halollikni, mardlik va sabr bardoshlikni,adolat tuyg'usini, bilim va ma'rifatga intilishni tarbiyalash yo'lida xizmat qilmog'i lozim»¹.

Istiqlol tufayli ma'naviyatimizning namoyandalarining tarixiy asarlari, ularning ilmiy ijodi, haqqoniy tarixda tutgan o'rni sun'iy tarzda soxtalashtirilib tahlil hamda targ'ib qilish tamoyillariga xotima berildi. Bir davrda, birday tarixiy sharoitda yashagan va ijod qilgan ma'naviyatimizning etuk namoyandalarini «diniy - mistik» ijodkorlari deb qaralishining noo'rinligi tobora oydinlashib qoldi. Yurtboshimiz e'tirof etganidek: «Tafakkur ozod bo'lmasa ong va shuur tazyiqidan, qullikdan qutulmasa inson to'la ozod bo'lmaydi»².

Shukronalar bo'lsinki, jannatmakon O'zbekiston bo'ylab bugun hur fikrlilik shabadasi esmoqda. Uning muqaddas, hayotbaxsh erki tarix olamiga, insonparvar dinimiz va tasavvuriga ham sezilarli ta'sir o'tkazdi. Asrlar bag'rida bo'y cho'zgan ilmiy

¹ И.А.Каримов «Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир» Асарлар 3 – жилд . Тошкент: Ўзбекистон. 1996 йил, 283 – бет.

² Ушбу асар, 34 – bet.

tarixiy yaratmalarni o’z qonuniyatlari asosida tahlil va tadqiq qilish tobora teranlashib bormoqda.

Tasavvuf namoyandalari va diniy ulamolarning asarlarini arab, fors tillaridan turkiy (o’zbekcha)ga tarjima qilish, ilmiy tahlildan o’tkazish va nashr borasida jiddiy yutuqlarga erishildi. O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so’ng o’tmishni, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviy merosni o’rganishga jiddiy e’tibor qaratildi. Ajdodlarimiz boshidan kechirgan boy tarixni haqqoniy o’rganishaga, xolisona yoritishga imkoniyatlar yaratildi. Milliy o’zlikni anglash, milliy mafkura ma’naviyat, ma’rifat kabilalar davlat dasturidagi dolzARB masalalar sirasidan ustuvor yo’nalish sifatida joy oldi. Shu jihatdan mamlakat rahbari I.Karimovning hozirjavoblik bilan aytgan quyidagi fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi: «Biz ma’naviy qadriyatlarni tiklashni, milliy o’zlikni anglashning o’sishidan. Xalqning ma’naviy sarchashmalariga, ularning ildizlariga qaytishdan iborat uzbek tabiiy jarayon hisoblaymiz»³.

O’zbekiston alloh nazar qilgan diyor. Bu zaminda necha – necha ulug’ zotlar, ilm ahllari, aziz avliyolar, ulamoyu olimlar, tasavvuf pirlari yashab ijod qilgan, mangu qo’nim topgan. Ajdodlarimiz tarixini, ular qoldirgan boy ma’naviy merosini haqqoniy o’rganish va kelajak avlodga xolisona yoritish biz yoshlarning zimmamizdadir. Davlatimiz rahbari shunday deydi: «Biz ezgu ishlarni qancha ko’p qilsak ulug’ ajdodlarimizning izzit – ikromini joyiga qo’ysak, ularning tabarruk nomlarini butun dunyoga tarannum etsak, yaratganning o’zi bizni balo qazolardan asraydi, bizga kuch qudrat ato etadi, yo’limizni ochib beradi. Parvardigori olam buyuk zotlarni o’zi aziz etgan joylardagina dunyoga keltiradi. Bunday Yurtlar esa er yuzida sanoqli. Biz cheksiz shukronalik bilan aytamizki ona vatanimiz Allohning nazari tushgan anna shunday muqaddas diyordir. Butun umrini iymon va e’tiqod, vatanparvarlik, poklik va halollik, ilm va ma’rifat,adolat va diyonat yo’lida fido etgan zotlarning mo’’tabar hoklari makon topgan zamingina muqaddasdir»⁴.

³ И.А.Каримов «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари», Тошкент. Ўзбекистон. 1997 йил, 137 – бет.

⁴ И.А.Каримов «Биз келажагимизни ўз кўлимиз билан курамиз» Тошкент 1999 йил 184 – бет.

Mustaqillik yillarida Ko'kaldosh, Abulqosim madrasalari, Xoja Ahrori Valiy, Shayx Zayniddin masjidlari ayniqsa, Hazrati Imom (Hastimom) mavzeidagi tarixiy-madaniy yodgorliklar o'zining ikkinchi hayotini boshladi. Ular qayta ta'mirlanib, o'zining ilgarigi mahobatli manzarasini kashf etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov buni mamlakatimiz hayotidagi ulkan madaniy-ma'naviy voqealarni deb baholar ekan, Toshkentga bunday yuksak nom berilishining tarixiy, madaniy va ma'naviy asoslari borligini alohuda ta'kidlagan edilar: «Agar tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, xoki poklari O'zbekiston tuprog'ida yotgan ulug' ajdodlarimiz, ne-ne mutafakkir zotlar asrlar mobaynida dunyoviy va diniy ilmlar sohasida qanday buyuk kashfiyotlar yaratgani, buning uchun qancha zahmat va mashaqqatlar chekkanini ko'ramiz. Bugun biz guvoh bo'lib turgan yuksak e'tirof, avvalo, ana Shunday ajdodlarimizning tabarruk nomlari va qoldirgan merosiga, o'zbek xalqining islam madaniyati rivojiga qo'shgan beqiyos hissasiga berilgan munosib baho, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz»⁵.

Ayniqsa, Respublikada din sohasida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy va ta'limiy ishlarni yanada takomillashtirishda ijtimoiy ko'mak va imtiyozlar berish to'g'risidagi 2003 yilning 22 avgust kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 364-sonli qarori mazkur yo'nalishda qo'yilgan muhim qadamlardan biri bo'ldi. Shu jihatdan 2003 yil noyabr oyida ulug' mutasavvif olim, xojagon tariqatining asoschisi – Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy tavalludining 900 yillik va 2004 yilda esa Naqshbandiya tariqatining yirik vakili – Xoja Ubaydulloh Ahror tavalludining 600 yillik yubileyi mamlakatimiz miqyosida keng nishonlandi. Bu mazkur ulamolarga el-yurt tomonidan ko'rsatilgan chuqur ehtiromning yorqin namunasidir.

Najmuddin Kubro (1145–1221), Bahauddin Naqshband (1318–1389), Alouddin Attor (vaf. 1400 y.), Xoja Muhammad Porso (1345–1420), Pahlavon Mahmud (XIV asr), Xoja Ubaydulloh Ahror (1404–1490), Mir Alisher Navoiy (1441–1501), Maxdumi A'zam Kosoniy-Dahbidiy (vaf. 1542), Boborahim Mashrab (1640–1711) kabi tasavvuf

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг «Туркистон-Пресс» нодавлат ахборот агентлиги мухбирига берган интервьюосидан // Халқ сўзи, – № 39, 2007 йил 23 февраль. – Б. 1.

ilmini nazariy va amaliy jihatdan boyitgan buyuk mutafakkirlarning fikrlari, ularning mamlakat hayotida faol qatnashgan etuk tarixiy shaxslar sifatidagi diniy, ma’naviy-ijtimoiy va siyosiy qarashlari, albatta, hozirgi davr uchun ham ahamiyatlidir.

Shu o’rinda Prezidentimiz I.A.Karimovning: «Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat qurmoqchimiz. Adolat va haqiqatga intilish esa xalqimiz tabiatining eng muhim fazilatlaridan biridir. O’tmishda oliv adolat g’oyasi mansabdon shaxslarga qo’yiladigan talab va bahoning asosi bo’lgan. U davlatchilik negizlarini belgilash, islomiy qoidalar va shariat mezonlarining poydevorini tashkil etgan. Biz tariximizdagi ana shu jihatlarni hisobga olmasak, qudratli, erkin, demokratik davlat qura olmaymiz»⁶, – degan fikrlarini alohuda ta’kidlab o’tish lozim deb bilamiz.

Milliy va diniy qadriyatlar asrlar davomida o’zaro chambarchas aloqada bo’lganligi bois, Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, diniy-ma’naviy hayotini o’rganishda islom tarixini ilmiy asosda tadqiq qilish muhim o’rin tutadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, avvalo, islom ta’limotining ajralmas qismi sanalgan tasavvuf tariqatlarining o’rta asrlardan boshlab Markaziy Osiyo mintaqasi ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o’ynaganini ta’kidlash o’rinnlidir. Bu tariqatlar o’z taraqqiyoti davomida mahalliy urf-odatlar va madaniyatga islomiy an’analarni moslashtirish hamda siyosiy hayotda etakchilik qilishdek bosqichlarni bosib o’tdi.

XVIII asrga kelib – Buxoroda hukmronlik qilgan Mang’itlar sulolasi davrida – tariqat oqimlari va shayxlarining faolligi birmuncha susaydi. Ayniqsa Eron shohi Nodirshohning istilosи, mahalliy hokimlarning er, boylik, markaziy hokimiyatga erishish maqsadida olib borgan urushlari natijasida o’lka xalqlari iqtisodiy tushkunlikni boshidan kechira boshladi. Bu holat aholining ijtimoiy-diniy yoki madaniy hayotiga o’z ta’sirini o’tkazmasdan qolmas edi. Ayni vaqtda, ildizi xojagon tariqatiga borib taqaladigan Naqshbandiya-Mujaddidiya tariqati Markaziy Osiyoda keng yoyila boshladi.

Madaniy merosimiz durdonalari – qo’lyozma manbalarning aksariyati Toshkent shahridagi qo’lyozmalar fondlarida, jumladan, O’zR FA Sharqshunoslik instituti, O’zR

⁶ Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби мукаддасдир. Т.3. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 10.

FA Adabiyot muzeyi, O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonalari va Toshkent islam universiteti Manbalar xazinasida jamlangan. Jumladan, Qur'onning eng qadimiy qo'lyozma nusxasi "Usmon Mushafi" Toshkentda saqlanadi.

Milliy hunarmandchilik va xalq amaliy san'ati qadimdan rivojlangan Toshkent hozirgi kunda ham bu sohadagi yuksak salohiyatini saqlab qolgan.

Mustaqillik yillarda ilmiy-ma'naviy, diniy-ma'rifiy adabiyotlarning chop etilishiga keng imkoniyatlar yaratildi. Aynan Toshkentda Qur'oni karim va hadisi shariflar, shuningdek, islam ma'naviy merosiga ulkan hissa qo'shgan allomalar asarlarining o'zbek tilidagi nashrlari amalga oshirildi.

Tarixchi-manbashunos olimlar tomonidan Yurtimiz tarixi juda chuqur tadqiq etilib yangidan-yangi asarlar tarjima qilinib, nashrdan chiqarilmoqda .

Men dissertasiyamni tasavvuf olimlarining faoliyati, ularning siyosiy-madaniy va ma'naviy hayotda tutgan o'mni, ular tomonidan tasnif etilgan asarlarning tarixiy ahamiyati, Yurtimiz ma'naviy jarayonida lozim bo'ladigan ibratli savol-javoblar tarzida yoritishga harakat qildim.

Tadqiqot davomida bir qator olimlar bilan: Jumladan, Samarqandlik manbashunos olim Komilxon Kattaev, Buxorolik olim va tarjimon Sadriddin Salim Buxoriy, BuxDU professori Halim aka To'raev, O'zFA Abu Rayhon nomidagi Sharqshunoslik Instituti qo'lyozmalar bo'limi mudiri tarix fanlari doktori, professor Maxmudxon Hasaniy, filologiya fanlari doktori, professor Mirsodiq Isoqov, filologiya fanlari nomzodi Sayfiddin Sayfullo kabi bir qancha olimlar bilan tadqiqot yuzasidan hamsuhbat bo'lib, tadqiqotning ayrim jabhalarini qayd etishda iqtiboslar oldim. Shu bilan birga, tadqiqotga bog'liq Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo Samarqand kabi viloyatlarining shahar va qishloqlarida mavjud tadqiqot ob'ektlarini borib tadqiq qildim.

Asosan Samarqand va Qashqadaryo viloyati tuman va qishloqlarida joylashgan tadqiqot markazlarini tadqiqotimning eng kulminaçion nuqtasi deb belgiladim. Sabab shulki, ushbu hududlarda Muhammad Islom shayx Karruxiy va ul zotning shogird-avlodlari yashab ijod etganliklari bilan birga, bir qator inshootlarni ham bunyod etganlar.

Shu bilan birga, dissertasiya o'zining ilmiy ahamiyatiga ko'ra nihoyatda nozik va qadimiy qo'lyozma manbalar asosida tasnif etilishi uning salohiyatini yanada oshiradi.

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik yillarda O'zbekiston davlatchiligi tarixini va ma'naviy ildizlarini ilmiy tadqiq qilish, mavjud faktik material va manbalarga xolisona yondashish borasida bir qancha samarali ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ma'naviy merosning tub mohiyatini aks ettiruvchi diniy va milliy qadriyatlarni qo'lyozma manbalar asosida o'rganish, ularni davr talabidan kelib chiqqan holda baholash, yangicha ilmiy tahlil qilishga katta ahamiyat berilmoqda. Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq beba ho ma'naviy-madaniy merosni xolisona o'rganish va tiklashga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida katta e'tibor berilmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, «Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o'tmishimizdag'i boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog'imiz kerak»⁷. Shu bois, madaniy merosimiz durdonalarini izlab topish, asrab-avaylash, saqlab qolish, ta'mirlash va nashr etish hamda ularni ilmiy tadqiq etish bo'yicha istiqbolli rejalar tuzildi, qadr-qimmati toptalgan ulug' allomalarining hayoti va ijodi o'rganila boshlandi.

Qimmatli asarlari bilan nafaqat islom olami, balki butun dunyo madaniyatida o'chmas iz qoldirgan Imom Buxoriy (810–870), Imom Termizi (vaf. 892 y.), Ahmad Farg'oniy (vaf. 865 y.), Abu Mansur Moturidiy (870 – 944), Xoja Ahmad Yassaviy (1105-1166/67), Abduxoliq G'ijduvoniy (1103-1179) singari ulamolarning hayoti va faoliyatiga xolisona yondaShuv, ular qoldirgan merosning asl ahamiyatini manbalar asosida yoritishga e'tibor kuchaydi.

Islom Konferençiyasi tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha ixtisoslashgan muassasasi (ISESCO) tomonidan 2007 yilda Toshkent shahrining «Islom madaniyati poytaxti» deb e'lon qilinishi, Shubhasiz, O'zbekistonning har bir fuqarosiga zo'r iftixor tuyg'usini baxsh etadi. Respublika Prezidenti Islom Karimov buni

⁷ Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Асарлар тўплами, Т.3. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 7.

mamlakatimiz hayotidagi ulkan madaniy-ma'naviy voqealarni deb baholar ekan, Toshkentga bunday yuksak nom berilishining tarixiy, madaniy va ma'naviy asoslari borligini alohuda ta'kidlagan edilar: «Agar tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, xoki poklari O'zbekiston tuprog'ida yotgan ulug' ajdodlarimiz, ne-ne mutafakkir zotlar asrlar mobaynida dunyoviy va diniy ilmlar sohasida qanday buyuk kashfiyotlar yaratgani, buning uchun qancha zahmat va mashaqqatlar chekkanini ko'ramiz. Bugun biz guvoh bo'lib turgan yuksak e'tirof, avvalo, ana shunday ajdodlarimizning tabarruk nomlari va qoldirgan merosiga, o'zbek xalqining islom madaniyati rivojiga qo'shgan beqiyos hissasiga berilgan munosib baho, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamic»⁸.

Ayniqsa, Respublikada din sohasida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy va ta'limiy ishlarni yanada takomillashtirishda ijtimoiy ko'mak va imtiyozlar berish to'g'risidagi 2003 yilning 22 avgust kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 364-sonli qarori mazkur yo'nalishda qo'yilgan muhim qadamlardan biri bo'ldi. Shu jihatdan 2003 yil noyabr oyida ulug' mutasavvif olim, xojagon tariqatining asoschisi – Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy tavalludining 900 yillik va 2004 yilda esa Naqshbandiya tariqatining yirik vakili – Xoja Ubaydulloh Ahror tavalludining 600 yillik yubileyi mamlakatimiz miqyosida keng nishonlandi. Bu mazkur ulamolarga el-yurt tomonidan ko'rsatilgan chuqur ehtiromning yorqin namunasidir.

Milliy va diniy qadriyatlar asrlar davomida o'zaro chambarchas aloqada bo'lganligi bois, Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, diniy-ma'naviy hayotini o'rganishda islom tarixini ilmiy asosda tadqiq qilish muhim o'rinni tutadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, avvalo, islom ta'limotining ajralmas qismi sanalgan tasavvuf tariqatlarining o'rta asrlardan boshlab Markaziy Osiyo mintaqasi ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynaganini ta'kidlash o'rinnlidir. Bu tariqatlar o'z taraqqiyoti davomida mahalliy urf-odatlar va madaniyatga islomiylar an'analarni moslashtirish hamda siyosiy hayotda etakchilik qilishdek bosqichlarni bosib o'tdi.

⁸ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг «Туркистон-Пресс» нодавлат ахборот агентлиги мухбирига берган интервьюосидан // Халқ сўзи, – № 39, 2007 йил 23 февраль. – Б. 1.

XVIII asrga kelib – Buxoroda hukmronlik qilgan Mang’itlar sulolasiga davrida – tariqat oqimlari va Shayxlarining faolligi birmuncha susaydi. Ayniqsa Eron shohi Nodirshohning istilosiga, mahalliy hokimlarning er, boylik, markaziy hokimiyatga erishish maqsadida olib borgan urushlari natijasida o’lka xalqlari iqtisodiy tushkunlikni boshidan kechira boshladi. Bu holat aholining ijtimoiy-diniy yoki madaniy hayotiga o’z ta’sirini o’tkazmasdan qolmas edi. Ayni vaqtda, ildizi Xojagon tariqatiga borib taqaladigan Naqshbandiya-Mujaddidiya tariqati Markaziy Osiyoda keng yoyila boshladi. Bu oqimning mazkur hududda etakchi tariqatga aylanishi XVIII asr va XIX asr boshlarida yashab o’tgan tariqat peshvolaridan biri Muhammad Islom Shayx Karruxiy (vaf. 1807 y.) nomi bilan bevosita bog’liq. Lekin, afsuski, uning hayoti, ijtimoiy-siyosiy faoliyati va ma’naviy merosi hanuzgacha alohuda tadqiqot mavzusi sifatida o’rganilmagan.

Ayni paytda Muhammad Islom Shayx Karruxiy haqidagi diniy-falsafiy asarlar Naqshbandiya-Mujaddidiya tariqatining ilmiy-nazariy jihatlarini o’rganishda muhim manba ekani va ularni tadqiqotlar doirasiga tortilmagani hanuzgacha mavzuning dolzarblik darajasini yanada oshiradi. Shu bilan birga Muhammad Islom Shayx Karruxiy va uning izdoshlari Markaziy Osiyo, xususan, Buxoro amirligi va Qo’qon xonligi, Xirot shahrining ijtimoiy-siyosiy hayotida o’ziga xos o’rin egallagan. Ayniqsa, XVIII asrda hukmron tabaqalar tomonidan tashkil etilgan siyosiy tadbirlarda Mujaddidiya Shayxlarning faol ishtirok etishi yaqqol ko’zga tashlanadi. Ayniqsa, XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Mang’itlar sulolasiga vakillaridan Muhammad Rahimbiy (vaf. 1758) Muhammad Doniyol (vaf. 1785 y.), Amir Shohmurod (Amir Ma’sum) (hukm.y.y 1785–1800) va Amir Haydar (hukm. y.y. 1800–1826), Amir Nasrulloh (hukm. y.y. 1826–1860) hukmronligi davrida sodir bo’lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ushbu tariqat namoyandalarining bevosita yoki bilvosita rahnamoligi va aralaShuvi ostida kechgan. Ammo hozirgacha bu davrning ijtimoiy-siyosiy hayoti tadqiqotlarda batafsil o’rganilmagan, ayniqsa, mintaqada faoliyat yuritgan tariqatlar tarixi, nazariyasi, va umuman, diniy vaziyat bo’yicha ilmiy maqolalar sanoqli. Bu holat ham tadqiqotimizning naqadar muhim va dolzarb ekanligini ko’rsatadi.

Mamlakatimiz ma’naviy hayotining zalvorli jihatni hisoblangan tasavvuf ta’limoti va tarixini, xususan, Muhammad Islom shayx Karruxiy hayoti va faoliyatini tadqiq qilish O’zbekiston tarixini xolisona yoritish uchun mustahkam ilmiy zamin yaratadi.

Mavzuning o’rganilish darajasi. Bugungi kunda tasavvuf ta’limotiga oid ko’pgina ilmiy ishlar chop etilgan. Birgina Bolqon va Turkiya mintaqalarida tasavvuf ta’limotining tarixi va hozirgi faoliyatiga oid mingdan ortiq maqola va monografiyalar mavjud. Ammo barchaga yaxshi ma’lum bo’lgan sabablarga ko’ra, ma’lum davrlarda bizning mintaqamizda «dinga qarshi kurash» siyosati dinshunoslik (xususan, tasavvufshunoslik va islomshunoslik) sohasidagi tadqiqotlar sonini ham keskin cheklab qo’ygan edi.

Tasavvuf ta’limoti xususida so’z borar ekan, albatta, ushbu yo’lning kelib chiqishi, tarixi, nazariyasi va rasm-rusumlari yoritilgan talaygina tadqiqotlarni va bu yo’nalishda ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchilarining ismlarini tilga olish kerak. Ulardan, birinchi navbatda, professor Anne-Mari Shimmel, Frits Mayer, Hamid Algar va Artur Byuxlerlarni ko’rsatish zarur.

Taqdim etilayotgan dissertasiyaning asosiy ob’ektiga kelsak, Muhammad Islom shayx Karruxiyning hayoti, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, ilmiy-ma’naviy merosi O’zbekistonlik va xorijlik tadqiqotchilarini tomonidan deyarli o’rganilmagan desak, mubolag’a bo’lmaydi. Umuman, tasavvuf ta’limotining Markaziy Osiyodagi tarixiga bag’ishlangan tadqiqotlarda Karruxiyning hayoti va faoliyatiga qisqacha to’xtalib o’tilgan⁹. Ya’ni hozirgacha bu allomani faqatgina akademik A.Qayumov, professor E.Shodiev, doktor A.Godlas zikr etganlar.

Professor Ergashali Shodiev (rahmat qilsin) o’zining «Hoziq kulliyoti»¹⁰ nomli maqolasida Muhammad Islom shayx Karruxiyning o’g’li Junaydulloh Hoziq hayoti va faoliyatiga doir ma’lumotlar berib o’tgan. Maqolada muallif shoir va tabib Hoziq asaridan iqtiboslari keltirgan.

⁹Tadqiqotchilar Karruxiyning o’g’li Hoziq haqida fikr yuritib, faqatgina uning otasi «Islom Shayx» ekanligini ta’kidlashgan xolos. Qisman Ergashali Shodiev «Hoziq kulliyoti» doirasidan chiqmagan holda ayrim iqtiboslarni ta’kidlab o’tgan.

¹⁰Ўзбекистон адабиёти тарихи. Тошкент, 1978. «Фан». IV том,

Akademik A.Qayumovning¹¹ nomli risolasida Islom Karruxiy haqida deyarli umuman ma'lumot keltirilmagan.

Ushbu Dissertasiya yuqorida zikr etilgan tadqiqotlardan farqli ravishda Muhammad Islom shayx Karruxiyning ilmiy-ma'naviy merosi va u haqda ma'lumot beruvchi asarlarni chuqur va kompleks tarzda o'rghanish orqali asosiy maqsadga erishishni nazarda tutadi.

Dissertasiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertasiya mavzusiga doir manbalar asosan O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi va shaxsiy kutubxonalarda saqlanmoqda.

Tadqiqotning maqsadi. Ushbu tadqiqotda XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Markaziy Osiyoda hukm surgan xonliklardi madaniy va ijtimoiy-siyosiy vaziyat, unda Muhammad Islom Shayx Karruxiy va uning izdoshlari ijtimoiy-diniy faoliyatining tutgan o'rni izchil o'rghanilib, tarixiy manbalar asosida yoritish asosiy maqsad qilib olindi.

Shuningdek, Muhammad Islom shayx Karruxiyning hayoti, faoliyati va merosini o'rghanish, uning Tasavvuf ta'limoti rivojiga qo'shgan hissasi, tasavvufiy-nazariy g'oyalarni shakllantirish va rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyatini aniqlash hamda mazkur mutasavvif olimning ushbu sohaga oid merosini tadqiq qilish ham tadqiqotdan ko'zlangan maqsadlar sirasiga kiradi.

Tadqiqotning vazifalari. Dissertasiyanı bajarishdan ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish rejalashtirildi:

- Muhammad Islom shayx Karruxiy yashagan davrda Markaziy Osiyoda yuz bergen ijtimoiy-siyosiy va diniy-madaniy jarayonlarni tadqiq qilish;
- Naqshbandiya sulukining vujudga kelishi va mazkur tariqatning ilgari surgan g'oyalarni haqida ma'lumot berish;
- Muhammad Islom shayx Karruxiy yashagan davr tarixiga, xususan, uning o'zi va izdoshlari biografiyasiga oid manbalarni tahlil etish;

¹¹ «Хозик». Тошкент. 1957 йил.

– Muhammad Islom shayx Karruxiy haqidagi asarlarni tahlil qilish va ularning ilmiy qiymatini ochib berish;

– Muhammad Islom shayx Karruxiy va uning izdoshlari XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asrning boshlarida Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy hayotga qanday ta’sir ko’rsatganini aniqlash.

Ilmiy ishning uslubiy asoslari. Mavzuni yoritishda jahon islomshunosligida tasavvuf ta’limoti va tarixini o’rganish borasida erishilgan eng so’nggi yutuq, xulosa va uslublarga tayanildi. Manbalarga oid ma’lumotlarni tahlil qilishda tarixiy-qiyosiy uslub qo’llanildi. O’zbekiston Prezidenti asarlarida bildirilgan, qolaversa, asrlar osha milliy qadriyatga aylangan merosimizga hurmat bilan yondashish, uning ajralmas qismi hisoblangan tasavvuf namoyandalarining hikmatlaridan yosh avlodni insoniylik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida foydalanish, shuningdek, dinlararo bag’rikenglik haqidagi fikr va ko’rsatmalarga rioya qilindi.

Tadqiqot ob’ekti. Movarounnahrda XVIII asrning ikkinchi yarmi XIX asr boshlaridagi ijtimoiy-diniy holat, unda tasavvuf tariqati vakillarining faoliyati, xususan, o’z zamonasining yirik mutafakkiri, pir-murshidi Muhammad Islom shayx Karruxiyning Tasavvuf ta’limoti va amaliyoti rivojiga qo’shgan hissasi, tasavvufga oid asarlar, Yurtimizdagи mavzuga doir tarixiy inshootlar tadqiqot ob’ekti qilib olindi.

Shuningdek, dissertasiyada mazkur davrdagi Movarounnahr tasavvuf maktabi namoyandalarining hayoti va faoliyati haqida qimmatli ma’lumot beruvchi «Manoqibi Islom Shayx» va «Voqeoti Islomiya» asarlari, tasavvuf tarixi, undagi oqimlarning yuzaga kelishi va bir-biridan farqli jihatlari haqida ma’lumot beruvchi manbalar tadqiqot predmeti qilib olindi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar. Muhammad Islom Shayx Karruxiyning Movarounnahr tasavvuf maktablari, xususan, Naqshbandiya- Mujaddidiya tariqatining ilmiy, nazariy va amaliy rivojida tutgan o’rnı quyidagi holatlarda ko’rsatib berildi:

– Muhammad Islom shayx Karruxiy Movarounnahrda XVIII asrdagi ijtimoiy-siyosiy, diniy-madaniy hayotda o’ziga xos o’rin tutgan. Uning ma’naviyatni

rivojlantirishdagi, xususan, tasavvuf ta'limotining mahalliy madaniyatga yanada chuqurroq kirib kelishidagi xizmatlari ham e'tiborga molik;

Muhammad Islom shayx Karruxiy Yassaviya, Kubroviya, Ishqiya, Naqshbandiya, tariqatlariining Markaziy Osiyodagi rivoji bevosita va uning izdoshlari faoliyati bilan bog'liq;

Muhammad Islom shayx Karruxiy Naqshbandiya tariqatining peshvosi sifatida XVIII asrning ikkinchi yarmidagi murakkab siyosiy jarayonlarda muhim mavqeni egallagan. Uning faoliyati o'sha davrda Movarounnahrda vujudga kelgan ijtimoiy-diniy va siyosiy vaziyatning barqarorlaShuvida katta ahamiyat kasb etgan;

Muhammad Islom shayx Karruxiy merosini izchil o'rganish tasavvuf tarixini o'rganishda yangi bosqichni boshlab berishi muqarrar;

Muhammad Islom shayx Karruxiy halollik, mehnatsevarlik, kamtarlik, vatanparvarlik, odob-axloq me'yorlariga rioya qilish, boshqa e'tiqod vakillariga nisbatan bag'rikenglik kabi ko'pgina umuminsoniy qadriyatlar targ'ib qilinganki, ular, shubhasiz, yosh avlodni keng dunyoqarashga ega qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Quyidagi ishlarni tadqiqotning ilmiy yangiligi sifatida zikr etish mumkin:

- Dissertasiyada XVIII asrda yashab o'tgan yirik mutasavvif olim Muhammad Islom shayx Karruxiyning hayoti va faoliyatini o'rganish O'zbekiston va dunyo tasavvufshunosligida ilk bor maxsus va kompleks tarzda ilmiy tadqiqot doirasiga jalb qilindi;

- Muhammad Islom shayx Karruxiyning tarjimai holi imkon qadar to'liq shaklda tiklandi va bu borada avvalgi tadqiqotlarda yo'l qo'yilgan kamchiliklar tuzatildi;

- Muhammad Islom shayx Karruxiy etakchilik qilgan tariqat maktabi namoyandalarining xronologik tartibi va ularning ijtimoiy-siyosiy faoliyatlari haqida ilk bor ilmiy asoslangan ma'lumotlar berildi;

- XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyo ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'rinn tutgan, o'lkaning turli hududlarida faoliyat olib

borgan tasavvuf shayxlari haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi «Manoqibi Islom shayx» va «Voqeoti Islomiya» asarlari chuqur tahlil etilib, «Manoqibi Islom Shayx» asari tabdil qilinib, nashrga tayyorlandi;

Shuningdek, Muhammad Islom Shayx Karruxiy xalifalari shogirdlari haqida ham keng ma'lumot keltirildi;

Tadqiqotning manbaları. Muhammad Islom Shayx Karruxiy to'g'risidagi boy ilmiy meros va uning davrida yaratilgan boshqa tarixiy asarlarni tahliliy o'rghanishga asosiy e'tibor qaratildi. Jumladan,

1. Muhammad Qosim ibn Hasan al-Balxiy «Manoqibi Islom Shayx», xijriy 1315 (1897) yil (arab, fors va asosan turkiy tillar)da yozilgan. O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Qo'lyozma, inv. № 1590.
2. Mirzo Junaydulloh Hoziq «Voqeoti islomiya» (yoki «Risolai Manoqibi Shayxulislom Hirotiy» forsiy), FA SHI. Qo'lyozma, inv № 12240

Muhammad Islom Shayx Karruxiy va uning yirik xalifalari faoliyati haqida ma'lumot beruvchi tarixiy-biografik manbalar o'rGANILDI:

1. Abdulaziz Xoja Amir Kuloliyning «Tazkirai Mashoyixi mutaaxxirini Buxoro»¹²;
2. Muhammad Haydar tomonidan ta'lif etilgan «Silsilai sharif» xijriy 1299 (mil. 1881) yilda yozilgan bo'lib, ushbu noyob manbada Janobi Islom shayx (va boshqa shayxlar)ning xalifalari tartib bilan berilgan.
3. Samarqand shahrida istiqomat qiluvchi ushbu avlod vakillarining shaxsiy kutbxonasidan ham munosib foydalanildi. Kutubxonada 20 ga yaqin vaqf, irshod, hasabnomalar, 30 ga yaqin tasavvufiy ahamiyatga molik qo'lyozma risolalar. Jami dissertasiyaga doir 100 ga yaqin noyob manbalar jamlangan.

Ushbu manbalar Muhammad Islom shayx Karruxiy yashagan davrga yaqin vaqtida yozilganligi va mualliflarning mazkur davrdagi ijtimoiy-siyosiy, diniy-ma'naviy hayotda bevosita ishtiroki hamda kuzatishlari natijasida yuzaga kelganligiga ahamiyat berildi. Mualliflarning mazkur tariqatga mansubligi va Muhammad Islom shayx

¹² 1863 yilda yozilgan, O'FAAB nomidagi Sharqshunoslik Institut q.f. inv/79/V, 73 – b varaq.

Karruxiy izdoshlaridan ekanligi ham asarlarning mavzuni o'rganish uchun asosiy manbalar sifatida tanlanishiga sabab bo'ldi va ular Muhammad Islom shayx Karruxiy haqida muayyan tasavvur hosil qilish imkoniyatini bera olishiga asosiy e'tibor qaratildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotni Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston tarixi, milliy va ma'naviy merosini o'rganishda tasavvuf Shayxlarining faoliyati va merosini manba qilib olish an'anasing bir ko'rinishi deb baholash mumkin. Bu ma'naviyatimiz tarixi va buyuk ajdodlarimiz boy ilmiy merosining yangi qirralarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo tasavvuf maktabi butun islom dunyosiga o'zining beqiyos amaliy va nazariy ta'sirini o'tkazgan. Bu diyordan ko'plab yirik mutasavvif allomalar etishib chiqqan. Ularning ibratli hayot yo'llari va boy ma'naviy meroslarini tadqiq etib, xalqimiz e'tiboriga havola qilish tadqiqotchilar oldida turgan muhim vazifalardandir. Bu borada Muhammad Islom Shayx Karruxiyning merosini o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan ushbu ilmiy ish muayyan ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalaridan oliy o'quv Yurtlarida «Dinshunoslik», «Islomshunoslik», «Tasavvufshunoslik», «Manbashunoslik», «O'rta Osiyoda islom tarixi» kabi asosiy va maxsus kurslarni o'qitishda foydalanish mumkin.

Natijalarning joriy qilinishi. Tadqiqot natijalarini joriy etish yuzasidan dissertant tomonidan quyidagi ishlar qilingan:

O'zFA Sharqshunoslik instituti, Samarqand davlat universiteti bakalavriaturasida bir necha bor tadqiqot doirasida ma'ruzalar o'qildi. **Ilmiy ishning sinovdan o'tishi.** Samarqand davlat universiteti bakalavriatura diplom ishi sifatida «O'zbekiston» kafedrasida muhokamadan o'tdi, O'zbekiston Respublikasi Sharqshunoslik institutida 2010 yilda o'tkazilgan «tarixshunoslik-manbashunoslik» Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasida tadqiqiy ko'rib chiqildi.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi yuzasidan ilmiy to'plam va jurnallarda 5ta ilmiy maqola e'lon qilinib, tadqiqotga doir «manoqib» nashrga tayyorlandi.

1. Mirzo Mexrojiddin Amonov. Tasavvuf ta'limotida Muhammad Islom shayx Karruxiyning tutgan o'mni. Markaziy Osiyo tarixi: manbashunoslik va tarixnavislik izlanishlari. Toshkent.2010 yil, 213-224 betlar.
- 2-3. Mirzo Mexrojiddin Amonov. «Zarafshon». 2008. mart, 2009. 29-aprel.
4. Mexrojiddin Amonov «Tazkirai mashoyixi mutaaxxirini Buxoro » BuxDU ilmiy-nazariy konferensiyasi. Maqolalar to'plami. 2011 yil.
5. Mirzo Mexrojiddin Amonov «Bobo Xoja Safoni bilasizmi». Zarafshon. 2010.27.10
6. «Manoqibi Islom Shayx» asarining tarjima – tahiya qilinib, nashrga tayyorlandi. 2009 yil.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati iborat bo'lib. Dissertasiya adabiyotlar ro'yxati bilan birga 72 sahifani tashkil etadi. Tadqiqotni bajarish jarayoniga 65 ta manba va adabiyot jalb qilindi.

I – BOB Tasavvuf ta’limoti va uning o’ziga xos xususiyatlari

1.1. Markaziy Osiyoda tasavvuf ta’limoti va uning o’ziga xos xususiyatlari.

Tasavvuf ta’limoti va uning mohiyatini anglash va tadqiq etish uchun avvalo tasavvuf tarixining muhim manbalarini bilish kerak. Ammo shuni aytish lozimki, bu manbalarning miqdori juda ko’p bo’lib, ularning barchasiga to’xtalishning imkoni yo’q. Tasavvuf tarixining muhim manbalarini etti guruhga (tasavvufiy-falsafiy asarlar, tasavvuf ilmini izohlagan asarlar, tabaqoti sufiya kitoblari, manoqib kitoblari, odob va arkon kitoblari, she’riy tasavvufiy asarlar, tasavvufiy tafsirlar) tasniflagan tasavvufshunos U.Turarning yozishicha “Tasavvuf tarixining manbalarini, albatta bu erda aytilganlardangina iborat emasdир. Уларсан, behad orttirish mumkin, chunki tasnifimizга kirmagan minglab tasavvufiy asarlar mavjuddir. Xusan, bevosita tasavvuf tarixiga oid asarlardan tashqari, bilvosita bu sohani yorituvchi ko’plab asarlar ham mavjud. Masalan, “tarix”lar, “monografiya”lar, “tazkira”lar, “shohrangiz”lar, “qomus”lar, “sayohatnoma”lar va hokazolar ham bilvosita tasavvuf tarixining manbalarini tashkil etadi. Tadqiqotchilar bu asarlardan foydalanishni ham unutmasligi kerak”¹³.

Mustaqillikgacha bo’lgan davrda tasavvuf ta’limoti keng va har tomonlama o’rganilmagan. Sharqshunos olimlar V.L.Vyatkin¹⁴, V.V. Bartold¹⁵ E.A. Belyaev¹⁶, M.Rajabov¹⁷, I.P. Petrushevskiy¹⁸ va boshqalarning¹⁹ ilmiy tadqiqotlarida tasavvufning muayyan qirralari yoritilgan.

Mustaqillik tufayli o’tmish madaniyatimiz va qadriyatlarimiz merosini qo’lyozma manbalar asosida xolisona o’rganish, ularni davr talabidan kelib chiqqan holda baholash, yangicha ilmiy tahlil qilishga keng yo’l ochildi va tasavvuf

¹³ Турап Усмон. Тасаввүф тарихи. – Т.: Истиқлол, 1999.- б. 15-16

¹⁴ Вяткин В. Из биографии Ходжи Ахрара // Туркестанские ведомости. – Ташкент, 1904. – № 147, 692 с.

¹⁵ Бартольд В.В. Туркестан в эпоху мангольского нашествия. – Спб, 1903; Бартольд В.В. Ислам. Общий очерк. – Петроград, 1918;

¹⁶ Беляев Е.А. Мусульманское сектанство (исторический очерк). – М.:1957. стр.375

¹⁷ Раджабов М. Абдурахман Джами и таджикская философия XV века. – Д.: Ирфон, 1968.- 318 с.

¹⁸ Петрушевский И.П. Ислам в Иране в VII-XV вв. – Л.: ЛГУ, 1966.- 400 с.

¹⁹ Кули-Заде З.А. Мировоззрение Касима Анвара. – Баку: Элм, 1976.- стр.240

g'oyalari ham jiddiy tadqiq etila boshlandi. Buyuk mutafakkir va allomalarining tavallud ayyomlari nishonlandi, maqbaralari tiklandi, ular xaqida kitoblar yozildi, shuningdek, asarlari o'zbek tilida nashr qilindi. Tasavvuf manbalariga oid qo'lyozmalar fixristi tuzildi²⁰.

Mamlakatimizda samarali ijodiy faoliyat olib borayotgan N.Komilov va boshqa olimlarlarning asarlarida tasavvuf va uning rivojlanish bosqichlari, tariqat, ma'rifat, haqiqat, futuvvat, komil inson, shu bilan birga tasavvufning insonparvar jihatlari falsafa bilan uyg'un holda qo'lyozma manbalar orqali ochib berilgan²¹.

Mustaqillik yillarida tasavvuf ta'limotini o'rganishga bag'ishlangan ishlarni tahlil qilar ekanmiz, mazkur yo'nalishda yaratilgan asarlar orasida xalqimiz tarixida tasavvuf allomalarining mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rmini aniqlashga bag'ishlangan ishlar ham mavjudligi ko'zga tashlanadi. B.Valixo'jaev (Olloh rahmat qilsin), Komilxon Kattaev, Sadreddin Salim Buxoriy (Olloh rahmat qilsin), Z.Qutiboev, E.E.Karimov, kabi olimlarning tadqiqotlarida Yurtimizda etishib chiqqan allomalarining tassavvuf ta'limoti taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, tariqatda tutgan o'rni, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faoliyati to'g'risida so'z yuritilgan²².

Ushbu tadqiqotlarda islom dini, tasavvuf ta'limotining mohiyati, g'oyasi, falsafasi, manbalari, shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat kabi tasavvuf bosqichlari, so'fiylikning asosiy yo'nalishlari hamda ularning Sharq va G'arb ijtimoiy-siyosiy hayotida, davlat boshqaruvida, inconparvar g'oyalarni targ'ib qilishda tutgan o'rmini tahlil etishga harakat qilingan.

Tasavvuf ta'limotida insonparvarlik – shariat, tariqat, ma'rifat va xaqiqatning inson ongida, hissiyotida hamda irodasida mushtaraklik kasb etishida namoyon bo'ladi. Keyinchalik esa "insonparvarlik" sufiycha ta'limotni emas, balki insonning olamga munosabatini, ijodkorlik qobiliyatini, ilmiy, falsafiy, axloqiy, badiiy, diniy qarashlarini, xullas, keng ma'nodagi aqliy va hissiy dunyosini, irodasini ifodalay boshladi.

²⁰ Бобохонов Ш., Мансуров А. Накшбандия тариқатига оид кўлёзмалар фихисти. – Т.: Мовароуннахр, 1993.- 128 б.

²¹ Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Мовароуннахр-Ўзбекистон, 2009.- 448 б.;

²² Валихўжаев Б. Xожа Аҳорори Вали. – С.: Зарафшон, 1993.- 152 б.; Буюк маънавий муршид. – Т.: Фан, 2004.- 169 б.;

“Tasavvuf tadrijiy taraqqiyotga ega ta’limot bo’lib, islom olamida VIII asrning o’rtalarida paydo bo’lgan. Dastlab u zohidlik harakati ko’rinishida kurtak yoyadi. Gap shundaki, hazrat Muhammad Mustafo (s. a. v.) vafotlaridan keyin musulmonlar jamoasi ichida bo’linish yuz beradi, ayniqsa xalifa Usmon zamonida boylikka ruju qo’yish, qimmatbaho tuhfalar bilan qarindosh-urug’lar, yaqin do’st-birodarlarni siylash rasm bo’ladi. Ummaviya xalifaligi davriga kelib esa, saroy hashamlari, dabdabali bezaklar, oltin kumushga berilish, xazina to’plash avj oldi. Ya’ni diniy mashg’ulotlar, Xudo yo’lidagi taot-ibodat o’rnini dunyoviy ishlar, dunyo moliga muhabbat egallay boshladи. Bu hol diniy amrlarni ado etishni har qanday dunyoviy ishlar, boyliklardan ustun qo’yan e’tiqodli kishilarning noroziligiga sabab bo’ldi”²³.

Dastlab boylikka ruju qo’yan jamiyat qarashlariga zid ish tutib, payg’ambar sunnatlariga qat’iy amal qilib o’z maslaklarida sobit bo’lgan bir guruh zohidlar tomonidan asos solingan diniy-falsafiy dunyoqarash asta-sekinlik bilan rivojlanib, mukammallasha bordi va butun musulmon dunyosining ma’naviy hayotining etakchi ta’limotiga aylandi.

Tasavvuf ta’limoti haqida fikr yuritganda uning bir qator nozik nuqtalari, bahstalab masalalari, istilohlari borki, ularga to’xtalmay turib, biz tadqiq etayotgan mavzu mohiyatiga oydinlik kiritib bo’lmaydi.

Tasavvufning ijtimoiy mohiyati va g’oyasi. Musulmon xalqlari hayotida muhim o’rin egallagan tasavvuf ta’limoti, uning ijtimoiy mohiyati va g’oyasi to’g’risida bildirilgan fikrlar, tasavvufga berilgan ta’riflar deyarli bir-biridan farq qilmaydi.

Ulardan ayrimlarini keltirib o’tamiz: “Agar tasavvuf nimadir, deb so’rasalar, aytginki, bu savolga berilgan javoblar bir qancha. Birinchidan, tasavvufni taxliya, ya’ni xoli bo’lmoq, qalbni bo’shatmoq va yaxshi, maqtalgan axloqdir, deydilar. Ikkinchidan, tasavvufni tasfiya, ya’ni ruhni ag’yor – begonadan tozalashdir, deb aytadilar. Uchinchidan, tasavvuf huzu’, ya’ni nafshi jilovlash, xoksorlik va jonsiporlik namunasini ko’rsatishdir deydilar. To’rtinchidan, tasavvuf da’voni tark etish va ma’nolarni xalqdan yashirishdir deguvchilar bor. Ya’ni, kishi to da’vodan voz kechmasa, ma’noga etmas va

²³ Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Мовароуннахр-Ўзбекистон, 2009.- б. 9

to o'z ma'nolarini yashirin tutmasa, tasavvufdan babra topmaydi. Beshinchidan, tasavvufni (yana) ibodat husniga ishorat, deb ta'riflaydilar. Oltinchidan, tasavvuf nafsni xor tutish va amrni aziz tutishdir deydilar. Ettinchidan, tasavvuf barcha adabdir va kimki faqr (darveshlik) odobidan biriga o'zini vobasta etmasa, tasavvufdan faqat nomgina biladi, xolos deydilar. (Ushbu ta'riflarning barchasi tasavvuf uchun xosdir)"²⁴.

Tariqatda maqomot va hol tushunchalari eng asosiy tushunchalar hisoblanadi. "Maqomot" – maqom (manzil, bekat) so'zining ko'pligi bo'lib, solikning, ya'ni, tariqatga kirgan kishining ruhiy-ma'naviy kamoloti bosqichlarini anglatadi. Tasavvufshunos olim Najmuddin Komilovning ko'rsatishicha Abu Nasr Sarroj tariqatda tavba, vara', zuhd, faqr, sabr, xavf, rajo, tavakkul, rizo kabi maqomlar mavjudligini qayd etgan²⁵.

Muhammad Islom Shayx aytdilarki: "shariat, tariqat va haqiqatni hamma narsada bayon etsa bo'ladi. Masalan yolg'on so'zlamoq man etilgan, ta'qiqlangan, chunki u shariatga ziddir. Agar kishi u bilan barqaror kurashib, tilidan uzoq etsa, yolg'on gapirmasa bu shariatdir.

Tasavvuf ta'limotining paydo bo'lishi, uning oziqlanish manbalari to'g'risida turli qarashlar mavjud. Tasavvufshunos N.Komilovning yozishicha "Tasavvuf amaliyoti va falsafasida bu buloqlarning samarali ta'siri bo'lishi mumukin. Lekin Shuni ta'kidlamoqchimizki, islomiy tasavvuf o'zi o'zlashtirgan jamiki narsalarni islam ruhida qayta ishlab, shariatga muvofiqlashtirgan"²⁶.

Tasavvuf ta'limotining asosiy manbasi Qur'on²⁷ hisoblanadi. Jahon xalqlari falsafasi, ma'naviyati, madaniyati asosida, u qaysi xalq bo'lishidan qat'iy nazar, u yoki bu muqaddas kitob, ya'ni Zarub, Tavrot, Injil yoki Qur'on g'oyalariga tayanish yotadi. Insonning pok yashashga undash, nafsni jilovlash, Allohning zoti va sifatlarini bilish, Allohning birligi va borligi, Muhammad (s.a.v.) uning oxirgi elchisi ekanligi

²⁴ Кошифий Ҳусайн Воиз. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. – Т.: А.Қодирий ном.халқ мероси нашриёти, 1994.- б. 18

²⁵ Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Мовароуннахр-Ўзбекистон, 2009.- б. 26

²⁶ Ушбу асар: - б. 16

²⁷ Куръони карим маъноларининг таржима ва тавсирни. Қайта ишланган 2-нашр. Таржима ва тавсир муваллифи Шайх Абдулазиз Мансур. – Т.: Тошкент ислом университети, 2006.- ... б.

farishtalarning, qiyomat, jannat va do'zaxning, o'lgandan so'ng tirilib savol-javobdan o'tish va shu asosda insoning mangu hayotdagi o'rni belgilanishiga ishontirish Qur'onning asosiy g'oyalari hisoblanadi. Qur'on uslubi o'ziga xos bo'lib, unda o'rni bilan payg'ambarlar hayoti ibrat namunasi sifatida keltiriladi. Gunohlar tufayli azoblanishdan ogohlantirish, qo'rqitish, Alloh rahmatidan umidvor bo'lishga undash o'ziga xos tarzda bayon qilinadi. Birgina shariat amallarini bajarish bilan cheklanib qolmay, ruhni poklash, o'zni tanish orqali yaratuvchini bilish, haq dargohiga maqbul va loyiq tarzda yashash Qur'onda olg'a surilgan asosiy g'oya hisoblanadi.

Tasavvuf ta'limotining islomiy manbalaridan yana bir hadislardir²⁸. Payg'ambarimiz Muhammad alayhisssalomning hayoti, yashash tarzi, oila va jamiyatda tutgan o'rti, aytgan so'zlari, davlat va jamiyat boshqaruvidagi roli, pandu-nasihatlari, fikr-mulohazalari tasavvufda Qur'ondan keyingi asosiy manba hisoblanadi.

Tasavvufiy hayotni tanlagan so'fiylar bir necha qoidalarga amal qilganlar. Jumladan, mehnat evaziga yashash, halol luqma eyish, ota-onani rozi qilish, o'zidan birovning manfaatini ustun qo'yish (jovanmardlik), oila qurish, farzand va muridlarlarni oqil qilib tarbiyalash shartlari bu qoidalarning negizi bo'lган. Shuningdek so'fiy odam shirin so'zlikda, ezgu axloqda va ezgu amalda o'zgalarga ibrat bo'lish shart bo'lган. Bu qoidalarga amal qilmaganlar tasavvufiy hayotning ma'nosini tuShuna olmaganlar. Boshqa ilmlarga nisbatan tasavvufni o'rganishda shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqatga aql va naql asosida qalban yondoshish talab qilingan.

Tasavvuf manbalarining asosida tavhidiy e'tiqod, solih kishining ezgu amallari, ummat yagonaligi, o'zaro birodarlik, inson va koinot, inson va Olloh orasidagi munosabatlar, diniy bag'rikenglik, boshqa mazhab va e'tiqoddagi aholi bilan bahamjihat yashash kabi g'oyalalar yotadi. Tasavvufiy manbalar shuning uchun ham ulkan ma'naviy merosimiz hisoblanadi.

Tasavvuf manbalari so'fiyning ma'naviy kamoloti mezoni, uning tafakkur doirasi, dunyoqarashining kengligi, ilmiy bilimlarni qay darajada egallagani, o'zi bilimi bilan

²⁸ Имом Бухорий. Саҳиҳи Бухорий (ал-Жомиъ ас-саҳиҳ). 1-китоб. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.- 711 б.; 2-китоб 623 б.

atrofdagilarga, jamiyatga foyda keltiruvchi shayx bo'lib etishishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tasavvufning eng buyuk xususiyatlardan biri, faqat nazariy jihat bilan cheklanib qolmay, tasavvuf tamoyillarini tariqatlar yo'li orqali amaliy hayotda tadbiq etish hamdir. Nazariyotda "tasavvuf" deb atalgan ba oqimga amaliy hayotda "tariqat" deyiladi. Shuningdek, tasavvufning ko'pgina masalalarini etarlicha anglay olmoq uchun faqatgina nazariy bilim etmaydi: ibodat, zikr, mujohada va riyozat orqali qalb ushbu masalalarni idrok etadigan soflikka erishadi. Tasavvuf amaliy turmush tarziga asoslangani uchun, bir tomondan uning nazariyasi ishlab chiqilar ekan, ikkinchi tomondan tariqatlar paydo bo'lib, tasavvufiy turmush tarzining qoidalari belgilangan. Dastalab, shaxsiy ma'naviy hayot tarzi bo'lib ko'ringan tasavvufiy turmush tarzi astasekin ijtimoiy-jamoat holiga aylangan.

Tasavvuf bag'rida qodiriya, yassaviya, kubraviya, chishtiya, suhravardiya, naqshbandiya, shozaliya, xilvaliya, mavlaviya, badaviya, dasuqiya va boshqa bir qancha tariqatlar shakllangan va rivojlangan. Olimlarning aniqlashicha, tasavvufda 160 dan ziyod tariqat tarmoqlari bo'lgan. Jumladan Islom Shayx Karruxiy ham bir vaqtning o'zida barcha tariqatda faoliyat ko'rsatgan²⁹. Tariqatlarning ko'pligi ham e'tirozlarga sabab bo'lmaydi. Har bir tariqat sohibining zikr va odob darslari boshqa-boshqa bo'lsada, maqsadi bitta: Alloh roziligini topish, Allohnинг sevgan va rozi bo'lgan bandasi sifatida uning jannati va jamoliga musharraf bo'lish. Yo'l tanlashdagi usul farqi asosiy g'oyaga taalluqli emas. Shu bilan birga tariqatlarni turlicha tasniflashgan. "Bu tasniflarning ko'pligi, ularning asosidagi o'lchovlarning xilma-xilligiga borib taqaladi" deydi U.Turar va tariqatlarning asosiy tasniflari, unsurlari, yirik maktablari va ularning asoschilariga bat afsil to'xtalib o'tadi³⁰.

"Tariqatni tasavvufning amaliy qismi, deb ta'riflaydilar. Darhaqiqat, shunday, chunki pir-muridlik qoidalari, odobiga rioya etish, solik (ya'ni, tariqatga qadam qo'ygan yo'lovchi) bajarishi kerak bo'lgan barcha yo'riqlar, irodat va ishorat usullari shu tariqat

²⁹ Batafsil qarang, Manoqiblarda.

³⁰ Турап Усмон. Та cavvuф тарихи. – Т.: Истиқлюл, 1999.- б. 62

ichiga kiradi”³¹. Pirsiz solik manzilga etolmaydi. Chunki odam o’zini o’zi nazorat qilishi qiyin, toki birov rahnamolik qilib, yo’l ko’rsatmasa, mushkuli oson bo’lmaydi. Rahnamo bo’lmasa, hatto eng yaxshi niyatlar ham samara bermay, qalbdagi zavqu shavq noto’g’ri yo’lda sarf bo’lishi, muhabbat isyonga aylanishi hech gap emas. Shuni e’tiborga olib, tajribali pirga qo’l berib, iroda-ixtiyorni unga topshirganlar. Shu ma’noda tariqatni irodat ham deydilar. Manbalarda pir-muridlik qoidalari, haqiqat pirlarining xususiyatlari belgilari aniq aytilgan bo’lib, mutasavviflarimiz va olimlarimiz soxta shayx va darveshlarni doim qattiq tanqid ostiga olishgan. Biz Nizomiddin Xomushning bu boradagi fikrlarini keltirish bilan cheklanamiz.

Olimlar tasavvuf tarixini dastlab ikki davrga ajratadilar: birinchisi – zohidlik davri, ikkinchisi – oriflik va oshiqlik davri. Birinchi davrni tasavvufning ibtidoiy davri (“avvalgi davr”) sifatida tilga oladilar. Oriflik davri deb atalgan ikkinchi davr IX asr o’rtalaridan boshlanib, bir necha bosqichlarga ega. “Chunonchi, IX-X asrlar – xonaqohlarning paydo bo’lishi, tariqat rusumlarining shakllanishi davri. XI-XII asrlar – tasavvuf maktablari, silsilalarning tarkib topishi davri. Bunda Misr, Bag’dod, Basra, Buxoro, Nishopur, Termiz, Balx shaharlari tasavvuf va tariqat markazlari sifatida muhim rol o’ynagan. Natijada Misr, Xuroson, Movarounnahr, Iroq va Turkiston maktablari shuhrat topgan”³².

XI asrlardan boshlab Markaziy Osiyoda ham tasavvuf keng tarqala boshladi. Bunda mashhur Xoja Yusuf Hamadoniyning (1048-1140) xizmati alohuda qayd qilinadi. “Yusuf Hamadoriy Buxoroda Xoja Abdulloh Barqiy, Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Abdulkoliq G’ijduvoniylarga saboq bergan”³³.

Xojagon tariqatida zikr va uning xillariga amal qilish nuqtai nazaridan ikki yo’nalish maydonga keladi – biri zikri aloniya, ya’ni baland ovoz bilan zikr qilish yoki jahriya sultoniya, ikkinchisi zikri xufiya, ya’ni ovoz chiqarmay dilda zikr qilish. Bu ikki zikrning mohiyati bir, ammo shakliy-ifodaviy farqda ba’zan mazmuniy o’ziga xosliklar ham ko’zga tashlanadi.

³¹ Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Мовароуннахр-Ўзбекистон, 2009.- б. 23

³² Ushbu asar: - б. 15

³³ Бухорий С.С. Табаррук зиёратгоҳлар. – Т.: Ёзувчи, 1993.- б. 17

Zikri aloniya yoki jahriya sultoniy yo'nalishi Yusuf Hamadoniyning uchinchi xalifasi Xoja Ahmad Yassaviy(1166 y.v.e.) tomonidan takomilllashtirilgan. Ahmad Yassaviy Turkistonda yashovchilarning turmush-tarzi, urf-odatlari, e'tiqodiy an'analarini e'tiborga olib, zikri aloniya yoki jahriya sultoniyani qo'llagan hamda Yassaviya nomini olgan bu yo'nalishni rivojlantirgan.

Zikri xufiya, ya'ni ovoz chiqarmay ko'ngilda zikr qilish yo'nalishi Yusuf Hamadoniyning to'rtinchi xalifasi Abdulkoliq G'ijduvoniy sharofati bilan etakchi mavqega ko'tarildi. U xojagon sulukini boshlab bergen. "Bu silsilaga daxldor shayxlar Xojalar yoki Xojagonlar deb ataladi. Xojagonlar tariqati shu so'zdan olingan"³⁴. Bu yo'nalish Bahouddin Naqshband tomonidan yanada rivojlantirilgani tufayli u naqshbandiya suluki sifatida shuhrat qozondi.

Hamadoniy ta'limoti asosida vujudga kelgan Abdulkoliq G'ijduvoniyning "Xojagon" tariqati Bahouddin Naqshband davrida keng yoyilib, Naqshbandiya yo'nalishini tashkil etdi. Shuning uchun Xojagon-naqshbandiya tariqati deb ataladi va ul buyuk zot Xoja Abdulkoliq G'ijduvoniya "Sarhalqai silsilai Naqshbandiya" deb ta'rif beradilar.

Yusuf Hamadoniyning tariqatlari – "zikri a'lonyi", oshkora zikr edi. Xoja Abdulkoliq ustozining ta'limotini har tomonlama boyitib, amaliyotga "zikri xufiya"ni olib kirdi. Va, xojagonlar tariqatining sakkiz rashha-qoidasini shakllantirib berdi. Bu haqda Ali Safiy shunday yozadi: "Xojagonlar tariqati binosining asosi hisoblangan quyidagi sakkiz so'z ham Xoja Abdulkoliqning aziz so'zlaridan hisoblanadi: hush dar dam, nazar bar qadam, safar dar vatan, xilvat dar anjuman, yodkard, bozgasht, nigohdosht, yoddosht. Bulardan o'zga narsalarning barchasi pindosht, ya'ni manmanlik va g'urur hisoblanadi. Maxfiy qolmasinkim, boshqa uch kalima ham bo'lib, bular mazkur toifaning istilohlaridan hisoblanadi. Ular vuqufi adadiy, vuqufi zamoniy va vuqufi qalbiydir³⁵, demak bu kalimalarning hammasi o'n bittadir.

³⁴ Ҳасаний М., Рассокова М. Ҳожагон тарикати ва Ҳожа Ҳасан Андокий. – Т.: Имом ал-Бухорий рес. илмий-маърифий мар. наш., 2003.- б. 8

³⁵ Bularni Xoja Bahouddin Naqshband qo'shgan. Батафсил қаранг: Юқоридаги асар.: 8 – 9 бет.

Hazrati Xoja Abdulxoliq Xojagonlar shajarasining sarhalqa (boshlovchi)si bo'lganlari uchun yuqoridagi kalimalarni bu erda tushuntirib ketish zarur, chunki bu azizlarning tariqati (yo'llari)ni bilish shu istilohlarni tushunishga bog'liqdir. Ular quyidagi rashhalarda qisqa yo to'liq holda o'z bayonini topadi.

Rashha 1. "Hush dar dam" deyishning ma'nosi shuki ichkaridan chiqayotgan har bir nafas ogohlilik va huzur yuzasidan bo'lishi, g'aflat unga hech yo'l topmaslmgm kerak va u nafasni ogohlikka sarflash kerak. kimki nafasini asramasa, uni yo'qotdi deydilar, ya'ni bu yo'l va usulni yo'qotibdi deganidir.

Rashha 2. "Nazar bar qadam" degani shuki, nazari doim oyoq panjalarining ustida bo'lsin, toki uning nazari sochilmasin va keraksiz joyga tushmasin.

Rashha 3. "Safar dar vatan"ning ma'nosi shuki, solik (tariqat yo'lida yuruvchi) odamiylikning tabiatida safar qiladi, ya'ni odamiylik sifatidan farishta sifatiga o'tadi, yomonlik sifatidan yaxshilik sifati tomon ko'chadi.

Rashha 4. "Xilvat dar anjuman" haqida hazrati Xoja Bahouddindan so'radilar: "Sizning tariqat yqlingizning asosi nima?" javob berdilar: "Xilvat dar anjuman, ya'ni tashqi tomondan xalq bilan, ichki tomondan Haq bilan bo'lish". Xoja Avliyoyi Kabir aytadilarki, zikr (Alloh so'zini takrorlash)da mashg'ullik shu darajaga etib boradiki, bozorga kirsa yurakdagagi zikr g'alabasidan hech qanday so'z va ovozni eshitmaydi.

Rashha 5. "YOdkard", bu zikri lisoniy (til zikri) yoki zikri qalbiy (dil zikri)dir. Mavlono Sa'diddin Qoshg'ariy aytadilarki, zikrning ta'lim berishning yo'li Shuki, shayx avval dili bilan "Lo iloha illallohu Muhammadur rasululloh" deydi. Murid esa diqqatini jamlab, ko'nglini shayxning ko'ngli ro'parasida tutadi, ko'zini ochib, og'zini mahkam yumadi, nafas olmay, ehtirom va kuchli ichki quvvat bilan yuqoridagi zikrni aytishni boshlaydi. Bu zikrni tili bilan emas, balki ko'ngli bilan aytadi. Nafas olmaslikda chidasin va bir nafasda nafas olmasdan uch marta aytsin, toki zikr halovatiko'ngliga etsin.

Rashha 6. "Bozgasht" Shundayki, zikr aytuvchi tili yoki dilida kalimayi toyyibani aytganda uning orqasidan "Xudovando, mening maqsudim sensan", so'zini aytadi. Bu

bozgasht kalimasi yaxshi yoki yomon fikrlarni odamdan haydovchidir, u zikrni xolis qiladi, zikrni o'zga narsalardan ozod etadi.

Rashha 7. “Nigohdosht” – har xil fikrlardan xalos bo’lish, tashqi olamdan ajralish uchun intilish bo’lib, kalimayi toyyibani bir nafasda nechamarta aytsa ham, shu davr ichidaxayolni boshqa narsalarga yubormaslik kerak.

Rashha 8. “Yoddosht” shundayki, undan maqsad Haq subhonahu va taoloning doimo zavqu shavq bilan yodda tutib, ogoh bo’lishdir. Ba’zilar uni “g’oyib bo’lmaydigan huzur” degan ibora bilan ham aytadilar. Ba’zi haqiqat ahliningnazarida u shunday bir mushohadadurki, Haq subhonahu muhabbat ko’ngilni tamoman o’ziga qamrab oladi, bu esa yoddoshtning hosil bo’lishidan darakdir.

Rashha 9. “Vuqufi zamoniy”. Xoja Bahouddin buyurdilar: “Murid bosib o’tuvchi yo’l bo’lgan vuqufi zamoniy (zamondan voqif bo’lish) shundayki, banda doimo o’z ahvolida voqif bo’lishi, har bir lahzada uning sifati va holi qanday, shukrga loyiqlimi yoki uzrga loyiqlimi, bundan ogoh bo’lishi lozim”.

Rashha 10. “Vuqufi adadiy”. Bu zikrda adad (sanoq)ga riosa qilishdan iboratdir. Xoja Bahouddin buyurgan edilar: “Qalb zikrida adadga riosa qilish parishon bo’lgan xayollarni quvib, diqqatni bir erga jamlashdir”.

Rashha 11. “Vuqufi qalbiy”. Bu ikki ma’noni o’z ichiga oladi. Biri shuki zikr aytuvchining dili Haq subhonahu va taoladan ogoh bo’lishi va hozir turishidan iboratdir, bu Shu darajada bo’lishi kerakki, Haq subhonahudan o’zga hech narsa dilda bo’lmasligi kerak. bunday ogohlilikni shuhud, vusul, vujud va vuqufi qalbiy deydilar.

Ikkinci ma’nosи shuki, zikr aytuvchi o’z dilidan voqif bo’lishi kerak, ya’ni zikr paytida majozan dil deb ataluvchi sanobar bargi shaklidagi bir parcha go’shtga butun diqqatini qaratishi lozim va bu parcha go’sht chap ko’krakda joylashgan bo’lib, uni zikr aytishga majbur va mashg’ul qilmoq kerak, uni zikr va fikrdan g’ofil bo’lishiga yo’l qo’ymaslik zarur³⁶.

Tariqatlar vujudga kelib, zohidlik va uzlatga chekinish rasm bo’lgandan boshlab, xilvat va anjuman yoxud xalq bilan va Haq bilan degan tushunchalar munozaraga sabab

³⁶Фахруддин Али Сафий. Рашаҳоту айнил-хаёт. Т.2004. б. 18-27

bo'lib kelgan. Bahouddin Naqshband ikki tomonni birlashtirib, ham xilvat sari ruhiy ehtiyojni qondirish va ham jamoat ichida yashab, elga foyda keltirish yo'lidan borgan. Buni "xilvat dar anjuman"da yaqqol ko'rishimiz mumkin. Tasavvufda bir-biriga zid deb kelingan tushunchalar o'zaro kelishtirilgan. "safar dar vatan" (vatan ichra safar), "hush dar dam" (nafasda hushyorlik), "nazar bar qadam" (nazarni qadamdan uzmashlik) kabi qoidalar "xilvat dar anjuman" qoidasini hayotga tadbiq etish usullari edi. "Yodkard" (yodlash), "bozgasht" (takrorlash, yangidan boshlash), "nigohdosht" (esda saqlash), "yoddosht" (eslab qolish) "zikri xafiy" deb nomlangan yashirin zikrga tegishlidir. Bahouddin Naqshband qo'shgan "vuqufi zamoni" (muayyan muddatda to'xtab, o'zini o'zi tekshirish), "vuqufi adadiy" (zikr hisobini aniqlash uchun to'xtash) va "vuqufi qalbiy" (qalb ahvolini bilish uchun to'xtash) tamoyillari ham yashirin zikrni mustahkamlash va kuzatib, natijasini bilish uchun joriy etilgan³⁷. Ammo nashbandiya tariqatida surunkali zikr talab qilinmagan. Maqsad ko'p aytish emas, mohiyatga qarab ish tutish bo'lgan.

"Xoja Abdulkoliq G'ijduvoniy ...xalqdan og'irlikni ko'tarmoq kerak va bu muyassar bo'lmasa, halol kasb bilan "dast ba kor, dil ba yor" degan so'zni xojagon tariqatida bajarish shartdir"³⁸ deb xalq manfaatlari yo'lida chalishishga, uning hayot yukini o'z zimmasiga olishga chaqirgan. Agar odam bu ishga qodir bo'lmasa, o'z yukini xalq ustiga tashlamay, biror kasbni egallab, halol mehnat bilan kun ko'rishi kerak deb o'z ta'limotining mohiyatini ochib bergan, Allohga yaqinlashishning, Alloh ko'rsatmalari bilan yashashning yangi, insonparvar yo'lini tavsiya etgan edi.

Bahouddin Naqshband G'ijduvoniy yo'lini davom ettirib, uni yuksak bosqichga ko'tardi. Abdulkoliq G'ijduvoniy "dast ba koru, dil ba yoru" deb, bunyodkorlikka va imonga da'vat etgan bo'lsa Bahouddin Naqshband "dil ba yoru, dast ba kor"³⁹ deb, imonga va bunyodkorlikka chorlaydi. Bir imon, bir tilak, bir intilishni mujassamlashtirgan va bir mafkurani ifoda etgan bu ikki muqaddas kalima o'z yurti va

³⁷ Комилов Н. Тасаввуб. – Т.: Мовароуннахр-Ўзбекистон, 2009.- б. 96-97

³⁸ Рашаҳот, б. 255

³⁹ Bu kalimaning Bahouddin Naqshband ifodasida bu shaklni olganini birinchi marta akad. I. Mo'minov qayd etgan. Qarang: «Избранные труды» Т., Фан 1968, том 2, с. 210

xalqining, shaxsan o'zining baxtini izlagan har bir insonning qalbida abadiy joy olishi kerak. zero, naqshbandiya tariqati – qalbi Alloh nuri bilan yoritilgan va qo'llari bunyodkorlik bilan band insonlar mafkurasidir. Shu mafkurani mujassamlashtirgan Bahouddin Naqshband ta'limoti yangi jamiyatimizning axloqida uning ajralmas bir qismi bo'lib qoladi⁴⁰. Uning “dil ba yoru, dast ba kor” aqidasi bugun yurtboshimiz ta'kidlaganidek, “jamiyatning ma'naviy hayoti bilan diniy munosabatlarni uyg'unlashtirishda ...dasturulamal qilib” olinadigan hikmatdir. Demak, tasavvuf falsafasi bugungi qarashlarimiz uchun ham, kelgusi avlodlarimiz uchun ham dunyoqarashni, tarbiyani belgilovchi omillardan biri bo'lib qoladi⁴¹. Chunki Bahouddin Naqshband ta'limotining ahamiyati faqat uning tarixdagi o'rni bilan cheklanib qolmaydi. Bu ta'limot bugun uchun, hozirgi kishilar ma'naviy kamoloti uchun ham katta ahamiyatga ega. Amerikalik olim Dj.S. Trimingham yozganidek, shu jumladan naqshbandiya falsafasi “bundan keyin insoniyatning ma'naviy barkamolligi uchun muhim hayotiy ta'limot bo'lib qolaveradi”⁴².

Bahouddin Naqshband 1318 yil Buxoro yaqinidagi Qasri Orifon (Kogon tumani)da tug'ilib, 1389 yil u erda marhum bo'lган. Qabri Qasri Orifonda ziyoratgohdir. Bahouddin tug'ilgan joy Qasri Hinduvon deb atalgan, keyin u kishining sharofatidan Qasri Orifonga aylangan ekan. Hazratning ismlari Muhammad, otalari Muhammad Jaloliddin, bobolari esa Sayyid Burhoniddindir. Bu zoti sharif nasablari ota tomonidan Hazrat Ali raziyallohu anhumga, ona tomonidan esa Abu Bakr Siddiqqa borib taqaladi.

Muhammad Boboyi Samosiy hazrat Bahouddinning dunyoga kelishini oldindan aytgan. Bahouddin tug'ilgandan so'ng ma'naviy farzandlikka qabul qilib, uning tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanishni shogirdi hazrat Mir Kulolga topshiradi. Hazrat Mir Kulol bu vazifani to'liq ado qilgan. U “suvrat yuzidin” Bahouddin Naqshbandga tariqat ta'limini o'rgatgan. Ammo Bahouddin “haqiqat yuzasidan” uvaysiydir. Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyning ruhoniyatlaridan tarbiyat topgandir⁴³.

⁴⁰ Иззат Султон. Баҳоуддин Нақшбанд абадияти. – Т.: Фан, 1994. 86-87 б.

⁴¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. – Т.: Ўзбекистон, 2000.- б. 244

⁴² Бухорий С.С. Табаррук зиёратгоҳлар. – Т.: Ёзувчи, 1993.- б. 21

⁴³ Рашаҳот, б. 54

Vaholanki, Abdulkoliq G'ijduvoniy vafotidan 139 yil o'tgandan keyin Bahouddin tug'ilgan. Uvaysiy so'zining mazmuni haqida Alisher Navoiy shunday yozadi: "...har kishiki, bu toifadin zohir yuzidin piri ma'lum bo'lmasa va mashoyixdin birining ruhi oni tarbiyat qilgan bo'lsa, oni uvaysiy derlar". Demak, o'tmis ulug'laridan birining ruhi kimni tarbiyat qilsa, unday shaxs uvaysiy bo'ladi.

"Rashahot"da yozilishicha Xojagon tariqatida Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy zamonidan to Amir Kulol zamonigacha zikri xufiyani zikri aloniya bilan birga amalga oshirganlar va ularning silsilasini "aloniyaxon" deganlar... Amir Kulol umrining oxirida barcha ashoblarini Bahouddin Naqshbandga ergashishini buyurganlarida ular "Hazrati Bahouddin zikri aloniyada sizga bay'at qilmadiku" deb savol qiladilar. Amir Kulol "ularga o'tgan hamma amallar hikmati ilohiydandir va o'rtada uning ixtiyori yo'qdir" deydi⁴⁴.

Shuningdek, hazrat Bahouddin Xoja Orif Deha-Deggaroni, turk shayxlaridan Qusam Shayx, Xalil Otalardan ham ta'lim olgan.

Bahouddin Naqshband o'z tariqatlari mohiyatini tushuntirib deganlar: "bizning tariqatimiz urvoi vusqodir (mustahkam tutqichlar), ya'ni hazrati Rasul salollohu alayhi vasallam mutoibati etagidan tutmoq va sahabai ikrom merosiga ergashishdir"⁴⁵. Yana qo'shib qo'yganlar "har kim bizning tariqatdan yuz o'girsa, dinida xatar ko'radi"⁴⁶.

Naqshbandiya tariqatida mutaassiblik yo'q. U barcha millat, barcha irqdagilarga dasturulamal bo'la oladi. Rost yo'l, to'g'ri yo'lni topa olishda qiblanamo vazifasini o'taydi⁴⁷. Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek "Hozirgi tahlikali dunyoda, turli nizo va adovatlar hali beri barham topmagan murakkab bir vaziyatda Naqshband bobomizning millati, tili va dinidan qat'iy nazar – inson zotini aziz va mukarram bilish o'zaro mehr-oqibat, shafqat va muruvvat muhitini qaror toptirish, etim-esirlarning boshini silash, muhtojlarga yordam berish kabi ezgu da'vatlari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda".

⁴⁴Ушбу асар: б.54-55

⁴⁵Ушбу асар: б.56

⁴⁶Комилов Н. б.110

⁴⁷ Бухорий С.С. Табаррук зиёратгоҳлар. – Т.: Ёзувчи, 1993.- б. 27

Halollik, poklik, xolislik va mehnat asosida kun ko'rishni hayotiy qoida qilib olgan, bid'atu xurofot, jaholatu nodonlik, bosqinchiligu millatchilik kabi illatlarga qarshi kurashgan bu tariqat "hozirgi davrda ham yosh avlodni etuk inson qilib tarbiyalashda, ularni axloqiy, aqliy jihatdan kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun naqshbandiya ta'limoti yoshlarda milliy g'oyalarni tarbiyalashda, ularni komil inson qilib etishtirishda beba ho qo'llanma bo'la oladi"⁴⁸.

Naqshbandiya tariqatining mafkura sifatida uzil-kesil shakllanishida uch buyuk shaxs – Yassaviy, Abdulkoliq G'ijduvoniy va Bahouddin Naqshband alohuda xizmat ko'rsatdilar. Agar Yassaviy jamiyatni Allohni tanishga o'rgatgan va bu yo'lida tarkidunyochilikni odat etishga da'vat qilgan bo'lsa, agar Abdulkoliq G'ijduvoniy, xuddi Yassaviydek, Allohni tanishga da'vat etish bilan birga, buning uchun tarkidunyo shart emasligini tushuntirgan va Allohga yaqin bo'lishnining boshqa yo'li – "bu dunyo"ga faol munosabat va insonning axloqi mukammalligi va tozaligi yo'li mavjud ekanini kashf etgan bo'lsa, Bahouddin Naqshband, xuddi Yassaviydek, Allohni tanishning inson uchun zarurligini tasdiq etishda davom etadi va u ham tarkidunyochilikni rad etadi. Ular Yusuf Hamadoniyning shogirdlari edi.

Bahouddin Naqshband o'z ta'limotida Allohga yaqin bo'lishning to'g'ri va eng samarali yo'li – jamiyat saodati uchun yashash, bunyodkorlik, savob ishlar va mukammal axloq ekanini tasdiq etuvchi mafkurani eng izchil va yorqin ifoda etadi.

Shu sababli naqshbandiya tariqati o'rta asrlar sharoitida bizning xalqlarimiz tarixida taraqqiyotning qudratli vositasi bo'lib xizmat etdi. Shubhasizki, naqshbandiya tariqatidek ta'limotlar orqali islom dini yurtimizda mahkamlanmasa, xalqlarning moddiy va madaniy hayotida islom birlashtiruvchi va odamlarni savob ishlarga ilhomlaniruvchi faktor sifatida rol o'yamasaga, Shu bilan birga tariqatda tarkidunyochilikdan kechilmasa, hayotga faol munosabat tasdiq etilmasa, jamiyatga fidokorona xizmat axloqiy qoida sifatida, muvaffaqiyatli ravishda, targ'ib etilmasa,

⁴⁸ Қиличева К. Баҳоуддин Нақшбанд таълимотида таълим-тарбия масалалари // Тил ва адабиёт таълими. 2001 № 1 б. 47

Temur va temuriylar davrida bizning xalqimiz o’z davlatini barpo eta olmas va iqtisod va madaniyat sohasida olamshumul yutuqlarga erisha olmas edi”⁴⁹.

Shu o’rinda hamma shayxlar va avliyoga oid bir masalaga alohuda to’xtalib o’tmasak xojagon-naqshbandiya tariqatining mohiyati va tarixiy roli ham to’la ravshan bo’lmay qoladi.

Shayxlar va avliyo o’rta asrlarda jamiyat hayotida rahnamolik rolini o’ynovchi shaxslar, deb hisoblanar va haqiqatan ham shunday edi. Alisher Navoiy shayxlar va avliyoning insoniyat hayotidagi joyini quyidagicha ta’rif etadi: Muhammad – payg’ambarlarning so’ngisi edi. Undan so’ng payg’ambarlar kelmaydigan bo’ldi. Payg’ambardan so’ng uning o’rinnbosarlari – xalifalar islom dunyosiga rahnamolik qildilar. Ulardan so’ng islom yo’lidan adashganlarni to’g’ri yo’lga solmoq vazifasi mashoyix va avliyo zimmasiga tushdi. Endi to qiyomatgacha shunday bo’ladi. “Nasoyim”da Shayxlar va avliyoning hayoti va ta’limotini ta’riflashga kirishar ekan, Navoiy yozadi: “Va ul sohibdavatlardin (xalifalardan) so’ng bu ummatning mashoyixi va avliyouollohi bu irshodg’a ishtig’ol ko’rguzdilar va va’da budirkim, olam inqirozig’akim, millat va shariat siroti mustaqim bo’lg’usidir, bu toifakim, valoyat va karomat ahlidurlar va xaloyiqqa irshod va ahdo qilurlar, muborak zotlarning barokati bu millat (musulmonlar) boshidan kam bo’lmaq’ay”.

Navoiy mashoyix va avliyonni “valoyat va karomat ahli” deb ataydiki, Yassaviy tariqati va uning rivoji bo’lgan naqshbandiya tariqatining va Shuhratining sabablarini tuShunish uchun bu atamalarning ma’nosini bilmoq zarur.

Biz, yigirmanchi asr kishilari, o’tmishdagi buyuk shaxslarning fikriy merosidagi mazmunni (masalan, Yassaviy ijodidagi Allohnini tanishni, insonni e’zozlashni va adolatni himoya etishni) Shu mazmunning bugungi hayotimiz muammolarini hal etishdagi yordamini qadrlaymiz. O’rta asrlarning odamlari Shu aytganlarimiz bilan bir qatorda yana boshqa bir necha fazilat uchun ham u buyuk shaxslarni alohuda qadrlaganlar.

⁴⁹ Иzzат Султон. 74-76 б.

Bu fazilatlarning biri shuki, o’rta asrlar odamining tasavvurida mashoyix va avliyo Allohga yaqin bo’lishga erishgan kishilardir. Shuning uchun ular “Habibulloh” (Allohnинг do’stlari) deb ham ataladilar. Bu buyuk kishilarning jamiyat hayotidagi tutgan baland o’rni ularga berilgan “Shayx” laqabida ham o’z aksini topgan. “Shayx” – ega, sardor, yo’l ko’rsatuvchi, rahnamo demakdir (ko’pligi – mashoyix). “Xoja” laqabi (ko’pligi – xojagon) ham xuddi shu ma’nodadir. Mashoyix va avliyoning xudoga yaqinligi yaratuvchining o’zi tomonidan turlicha ravishda ularga ma’lum etiladi va bu hodisa “valoyat” deb ataladi.

Bu fazilatlarning yana biri shuki, mashoyix va avliyo o’rta asrlar odamining tasavvurida karomat ko’rsatishga qodir kishilardir, ya’ni ular bo’lajak hodisalarini oldindan aytish, o’lgan kishini tiriltirish va shunga o’xhash g’ayrioddiy ishlarni amalga oshira biladilar. “Nasoyim”da Alisher Navoiy mashoyix va avliyodan sodir bo’ladigan va bo’lgan shunday hodisalarning uzun ro’yxatini beradi. Yassaviy haqida gapirganda ham Navoiy uning “karomati mutavoliy va nomahsur” (karomatlari uzlucksiz va cheksiz) ekanini alohuda uqdirib o’tadi. Demak, Navoiy o’zi ham mashoyix va avliyoning karomatlariga bir darajada bo’lsa ham ishonadi. Bugungi psixoterapiya (masalan, ekstasenslar)ning muvaffaqiyatlari ko’rsatadiki, Navoiyning bunday ishonchiga ancha asos bo’lgan.

Bu fazilatlarning yana biri shuki, mashoyix va avliyo o’z o’limidan keyin ham odamlarning taqdiriga ishtirok etishda, ularga madad berishda yoki ularning gunohlari uchun jazo berishda davom etadilar. O’rta asrlar odamining tuShunishicha, har qanday inson o’limidan keyin ikkinchi, ruhiy hayot kechiradi va mashoyix va avliyo, albatta, bundan istisno emas. Bahouddin Naqshbandning mashhur laqablaridan biri – “Balogardon” (balolardan xalos etuvchi) ekani sira bejiz emas.

Bu aytigal fazilatlar tufayli ham o’rta asrlar odamining buyuk shaxslarga hurmati, ixlosi va ishonchi biz tasavvur etganimizdan ko’ra ko’p hissa kuchli bo’lganki, mashoyix va avliyoning o’tmishda jamiyat hayotida tutgan o’rnini baholaganda bu

jihatni sira ko'zdan qochirib bo'lmaydi⁵⁰. Shuni yodda tutish lozimki, biz o'z tadqiqotimizda taqdirini bayon qilayotgan zotlar bizning bugungi mezonlarimizdan mutlaqo boshqacha mezonlar bilan yashaganlar. Ular g'ayritabiyy olamning abadiyligiga nafaqat ishonganlar, balki uni mazkur abadiylikda azaldan mavjud deb hisoblaganlar. So'fiylar hayotidagi "holatlar", "ilhomlanish lahzalari", "karomatlar ko'rsatish" tasvirlarini ular yashagan davr muhiti bilan bog'lab o'rganilmasa, biz oqilona mulohaza yuritishdan mahrum bo'lgan hisoblanamiz.

Tariqat deb nom olmish fikriy oqimning ikki aspekti (qirrasi, tomoni) mavjud: falsafiy (ilohiyotga doir) aspekt va diniy-axloqiy aspekt. Tariqatning falsafiy aspekti fanda "so'fiylik", "tasavuf" deb ataladi. Tariqatning falsafiy ahamiyati, bizningacha, bugun faqat tarixiy va ma'rifiy jihatlar bilan cheklanadi. Boshqacha qilib aytganda, tariqatning falsafiy (ilohiyotga, Alloh haqidagi ta'limga oid) tomoni bugungi kishilar uchun amaliy ahamiyatga ega emas. Tariqatning zamonaviy ahamiyati ko'proq uning diniy-axloqiy aspektidadir⁵¹.

Hazrati Xoja Bahoudin asos solgan suluk naqshbandiya deb ataladi. Naqshband so'zi Hazrati Xojaning laqablari bo'lib, matoga naqsh(gul) solishni bildiradi. "Maqomot"ning bir erida Hazrati Xoja mato to'qiydigan do'konlari borligiga ishora qiladilar. Bu so'zning ramziy ma'nosi ham bo'lib, muridning qalbiga Alloh muhabbatini naqshlanganligini bildiradi. "Hazratga Naqshband nomini berilganligiga ikki sabab bor. Biri shuki, bu zoti sharif kimxoga, ya'ni matoga naqsh solish (gul solish) kasbi bilan shug'ullangan. Ikkinchisi esa, naql qilinishicha, Hazrat Bahouddin kim bilan suhbatlashsalar, shu suhbatdan so'ng Allohning nomi o'sha odam qalbiga naqshlanib qolarkan. shu sabab bu kishiga Naqshband unvoni berilgan"^{52₃₀}.

Naqshbandiya sulukining boshqa suluklardan bir qancha farqli tomonlari mavjud:

Birinchidan – naqshbandiya suluki qo'l mehnati bilan, halol ter to'kib hayot keehchirishga targ'ib qiladi. Hazrati Xojaning mashhur "dil ba yoru dast ba kor" degan

⁵⁰ Иззат Султон, 20-23 б.

⁵¹ Иззат Султон, 5 б

⁵²Ushbu asar: 68, 26 b.

so'zлari ana shuni ifodalaydi. Hazrati Xoja o'z ovqatlarini ziroat orqali topar, erlariga don, sabzi, turp, piyoz ekar, ho'kizlarini ehtiyotlab asrar, qo'y va sigirlaridan doimo boxabar bo'lib turardilar. Bu esa Rasulullohning sunnatlariga muvofiq edi. Zotan Rasulullohning o'zлari: "haqiqiy musulmon bu dunyoni deb, u dunyosini tashlamaydi, u dunyo deb, bu dunyosini qo'ldan bermaydi", degan edilar. naqshbandiya sulukiga kirgan kishilar oilasini obod qilish, mamlakatga qarash, savdo-sotiq bilan shug'ullanish va boshqa huquqlarga ega bo'lganlar. Shuning uchun ham bu suluk tez rivojlanib, keng yoyilgan.

Ikkinchidan – naqshbandiya sulukidagilar boshqa sulukdagilar kabi «zikri aloniya» bilan emas, balki "zikri xufiya" bilan shug'ullanganlar.

Uchinchidan – naqshbandiya sulukiga mansub valiyarda bemordan kasallikni o'ziga olib, so'ng bu illatni o'zlaridan chiqarib tashlash quvvati mavjud edi. Boshqa suluklarda esa bu bo'lмаган.

To'rtinchidan – naqshbandiya sulukidagi avliyolar karomatfurushlikka keskin qarshi bo'lganlar. Muridning asosiy maqsadi ma'naviy va ruhiy poklanish, Allohga etishish va vahdat hosil qilishdan iborat. Hazrati Xoja musulmonlar og'ir holatga tuShub qolganlaridagina karomat ko'rsatganlar. Boshqa hollarda esa soliklarni qiziqtirish yoki ularga azob berish maqsadidagina bu ishga qo'l urganlar. U kishi o'zlarining kuchlari hamda avliyolik quvvatlari bilan odamlarni ma'naviy va ruhiy poklashga, xalqqa jafo etkazayotgan zolimlarning payini qirqishga, xalq ommasini ilmu ma'rifat bilan qurollantirishga, Rasululloh sunnatlariga to'liq amal qilib, dinni bid'atlardan tozalashga harakat qilganlar. Xalq ichida bu zotning shu qadar obro'-e'tibor topishining sababi ham shundadir.

Ma'lumki, qudrat egasi yolg'iz Alloh taolodir. Payg'ambarlarga esa Alloh tomonidan mo'jiza ko'rsatish izni berilgan. Alloh avliyolarga, ya'ni tariqat pirlariga karomat ato etgan. So'fiylar o'zlarini payg'ambarlarning merosxo'ri deb bilar ekan va botiniy hol kechinmalari ichida bo'lish, Iloh asroriga oshnolikka etishish uchun intilib, aqliy bilishdan ko'ra irfoniy-vajdiy idrokni ustun qo'yar ekanlar tabiiy ravishda kashfu karomat hodisasi kelib chiqadi. Ruhiy kamolotga etgan ulug' insonlar albatta oddiy

xalqdan ajralib turganlar, ularning zehnu zakovati, aqlu shuuri, fazlu farosati juda baland bo’lgan. Ular ruh qumondonlari sifatida atrofdagilarga behad kuchli ta’sir o’tkazish qudratiga, najib hislatlarga ega bo’lganlar. Bu hislatlar ezgulik, ezgu axloq sari yo’naltirilgan bo’lib, kishilar orasida ilohiy fayzu barakotning kengroq yoyilishini ta’minlagan, islomiy haqiqatlar, e’tiqod ruknlarini mustahkamlagan.

XV-XVI asralar Movarounnahr va Xurosonda naqshbandiya to’la tantana qilib, gullagan davr bo’ldi. Naqshbandiyadan keyin tasavvuf tarixida boshqa silsila vujudga kelgan emas. Eron va Hindistonda ayrim yangi tariqatlar shakllangan, lekin ular shaxobchalar bo’lib, tasavvuf uchun yangi nazariy va amaliy yo’nalish bermadi.

Ana shuning uchun ham Markaziy Osiyoda XVIII-XIX asrlardagi diniy shart-sharoit masalasini tadqiq etayotganda, bu davr uchun “islom”, “so’fiylik” so’zlari bir qator omillarni ifodalagan. Bular, eng avvalo o’sha davr jamiyatining g’oyaviy, ma’naviy, ijtimoiy, huquqiy normalaridir. Bu o’rinda islom nafaqat muayyan diniy ta’limot sifatidagina emas, balki “muayyan dunyoqarash, ijtimoiy-madaniy o’ziga xos omil, siyosiy podshoparastlik” sifatida namoyon bo’ladi⁵³.

⁵³Ислам в современной политике стран Востока (конец 70-х – начало 80-х г. XX в.). – М. 1986.- с. 9

1.2. Muhammad Islom Shayx Karruxiy hayoti va ilm tafsili

Hazrati Muhammad Islom shayx Karruxiy etuk tasavvuf namoyandası, ahli jazabaning rahnamosi, jome'us suluk tarbiyatçisi Janobi Hazrat Eshoni Shahidi Shahodatpanoh, So'fi Islom shayx, Shayxulislom Karruxiy nomlari ila mashhurdirlar.

Hazrati Islom shayx Karruxiy al-Xiraviy 1721 yil⁵⁴da Hirotning Karrux mavzeida tavallud topganlar. Eshoni Shahodatpanoh dastlabki ta'limni otalaridan olib, ilmi sarfu nahv va shariat arkonlarini puxta o'zlashtiradilar.

Eron podshohi Nodirshoh Afshor (1736 – 1747) yurish qilib Afg'onistonni bosib olgach, ko'p asirlar qatori Islom Shayxni ham Mashhadga olib ketadi. Islom Shayxning o'g'llaridan biri – Mirzo Junaydulloh Hoziq yozgan «Voqeoti islomiya» (yoki «Risolai manaqibi Shayxulislom Hirotiy») qo'lyozma kitobi va Hoziq ijodi tadqiqotchilarining yozishmalariga qaraganda, Islom shayx (bu erda) o'n besh yil Nodirshohning xizmatida bo'ladilar. 1747 yilda Xabushonda Nodirshoh o'ldirilgach, o'sha paytlarda Nodirshoh xizmatida bo'lib turgan mang'itlar urug'i sardori Muhammad Rahim u kishini Buxoroga olib keladi.

Islom shayx so'fiylik tariqati asrorlarini Buxoroda sipohi va yasavulboshi bo'lib ishlayotgan vaqtlaridan o'rgana boshlagan. Ul zotning tariqatga kirishlari bir devona – majzub so'fiy, ya'ni Hazrati Xizr alyhissalom bilan uchrashganlaridan so'ng boshlangan va 12 yil davomida Buxoroda u (Hazrati Xizr alayhissalom)ning ravishida majzubsifat holda yuradilar. Muhammad Qosim ibn Hasan al – Balxiyning «Manaqibi Islom Shayx»⁵⁵ asarida bu xaqda shunday satrlarni o'qish mumkin: «Buxoro sultonı (Amir Shohmurod) va Islom shayx bir kun Xorazm'a safar qilib borur erdilar, yarim

⁵⁴ Tasavvufning zabardast murshidlaridan biri Hazrati Musoxonxoja Dahbediy ibn Muhammad Isoxoja Dahbediydan o'n ikki yosh kichkina bo'lган (Hazrati Musoxonxoja Dahbediy 1709 yil Dahbedda tavallud topgan)lar. Qarang, Mirzo Junaydulloh Hoziq «Voqeoti islomiya» (yoki «Risolai Manaqibi Shayxulislom Hirotiy» forsiy) O'zFAAB nomidagi Sharqshunoslik Instituti qo'lyozmalar fondi inv № 12240 16 – b, 17 – a varaqlar.

⁵⁵ Xijriy 1315 (1897) yil (arab, fors va asosan turkiy tillar)da yozilgan Manaqib O'z.F.A.A.B nomidagi ShI q.f inv\1590, ushbu asarning forscha nusxasi Mirzo Kalimulloh O'zbekxon Eshonbobo kutubxonalarida saqlanmoqda.

yo’lg’a borg’onlarida bir mo’ysafid piru mardi nuroniy hamroh bo’ldilar. Bul kishiga ko’p suxanvarlik qilib inoyati benihoyat amr ettilar va aydilar: «Ey farzandi dilband, umringizni zoe’ (↑9 – b varaq) qilmang, mulozamati sulton uz – zamon bilan yururman deb g’ofil bo’lmang. Ey farzand, Haq ta’olo sizni azbaroyi bozi behuda uchun xalq aylamadi. Nodon g’ofillardin bo’lmangki, alarning himmati va g’ayratu maqsadlari azbaroyi dunyo uchun turur va man sizni ogoh qilmoq uchun, nasihatni mushfiqona qildim va bul podshohi zamoni majlislaridin yuz o’gurung», deb janobi Hazratning nazarlarig’a uch kung’acha ko’runmadilar. Ba’dahu bir joyi digarga yana keldilar va aydilar: «Ey farzand, man kelib bisyor nasihatlar qildim. Man Xizr alayhissalom bo’lurman va sizga talqini zikrulloh qilurman. Ba kalimai «yo hu yo man, hu la ilaha illa hu»g’a mashg’ul va kushish qiling va ahli gumrohlarning majlislarini tark qiling va bul salotinlik bilan g’ofil bo’lmang va ba xizmati «ahkomul hakimiyn»ni bajo qiling.

Albatta to’g’ri va rost so’zlovchilardin bo’ling va xolis muxlislardin bo’lib, zolimlardin (↑10 – b varaq) bo’lmang va johilliq qilmang va parhez qiling. Libosi shohonani qo’yib, libosi faqironi kiying va ta’omni kam eb, nodon xaloqlardin qoching. Haq ishqida yonib, tog’qa borib g’orpanohg’a ichra zikrulloh ila mashg’ul bo’ling va mujohidat, riyozat torting va piringizni amrin bajo kelturing», deb Hazrati Xizr alayhissalom 12 yil mobaynida Hazrati Islom shayxni tarbiyat qiladilar. Mirzo Habibulloh Boboxon Eshonbobo bu voqelikni xozirgi Nurota atrofida joylashgan G’azg’on – Shohimardon mavze’sida bo’lganligini aytib, sharafli bobolaridan shunday naql qilgandilar: «Janobi Eshoni Shahidi Shahodatpanoh Hazrati Xizr alayhissalom ko’rsatmasi ila chillaga o’tiradilar. 12 yil mobaynida Eshoni Shahidi Shahodatpanoh kunduzi ro’za, kechalarda virdu navofillarini bajarib, yillar mobaynida sohibikaromat valiyulloh darajasiga etadilar. Bu zotning oldilariga ohular kelib, o’z sutlarini sog’dirib ketishgan va bundan tashqari bargu giyohlarni iste’mol qilganlar. Hazrati Xizr alayhissalom qo’llari bilan darvesh monand shogirdlariga «sharobi antohur» ichirar ekanlar, bu xaqda manoqiblarda ham zikr etilgan.

Tadqiqotchilar, Islom shayxning Buxoroda Amir Shohmurodning taxtga o’tirgan vaqtigacha, ya’ni 1785 yilgacha yashaganliklarini yozishadi. Agar bu to’g’ri bo’lsa,

tadqiqotchilar yozishganidek o'n ikki yil emas balki, 1747 yildan 1785 yilgacha, qariyb 40 yilga yaqin vaqt davomida Buxoroga yashagan bo'lib chiqadilar.

Qo'lyozma kitoblarning xattoti tomonidan bo'lsa kerak, yo'l qo'yilgan bu kichik saxvu xato tufayli tarixchilar ahli biroz chalkashishadi. Aslida, Muhammad Rahimbiy 1747 yilda hokimiyatni qo'lga oladi. Muhammad Rahimxon sifatida esa 1753 – 1758 yillar davomida 11 yil taxtga o'tirgan. So'ng qarindoshi Amir Doniyol (1758 – 1785 yillar hukm surgan) ham 27 yil hokimiyat taxtiga o'tirgan va u hukm surgan davr o'rtalariga kelib, o'zi hali tirik bo'lsa-da, o'z o'g'li Shohmurodga taxtdan boshqa barcha hokimiyatni topshiradi⁵⁶. Bu voqeа XVIII asrning 70 – yillari oxiri va 80 – yillar boshida yuz beradi. Ya'ni Shohmurod taxtga emas, «joynishinlik» – o'rribosarlik lavozimida faoliyat ko'rsatgan. 1785 yildagina otasi vafot etgach, Buxoro taxtiga o'tirgan. Hoziqning «Voqeoti islomiya» asarida ham uni «Shohmurodbiy» deb atashi bejiz emas. Aks holda, «Amir Shohmurod» deb atardi. Demak, Islom shayx Buxoroda Amir Doniyol davrida Buxorodan Afg'onistoniga ketganlar.

Muhammad Qosim va Mirzo Junaydulloh Hoziqlar tomonidan ta'lif etilgan manoqiblarda va boshqa manbalarda bu voqelikka shunday tavsif berib o'tilgan: Islom shayx Buxoroga saroy xizmatidagi chog'larida, kundan – kunga martabalari oshadi, ahli saroy orasida podshohga ko'p maqrab bo'ladilar. Bora–bora ulug'roq martabaga etib, hamisha sulton uz – zamon bilan birga bo'ladilar. Saroyda va saroy tashqarisida ham xizmat qilib, in'omhoi benihoya va liboshoi foxira va baxshishi behisob oladilar. Natijada, vaziru akobirlar va ahli majlis hozirlar hasad qilib, ko'p rashk qiladilar va podshohi zamong'a malomat qilib, janobi Hazratni kamsitib va hiyonat qilib, balki haqlarig'a tuhmat qiladilar⁵⁷», shundan so'ng Janobi Shahidi Shahodatpanoh (ruhahul aziz) (Xizr alayhissalom aytganlaridek) fisqu – fujur, nadomat toshini yog'dirishga urinadigan gumrohlarni tark etib Afg'onistonning Andxud mavzeiga, so'ng Maymanaga borib bir muddat yashaydilar. Shu vaqtarda Qobul taxtini egallagan Temurshoh Islom shayxning bir qator fazilatlarini ko'rib, uni hurmat ehtirom ila o'z xuzuriga, Qobulga

⁵⁶ Аҳмад Маҳдум Дониш. Рисола аз таърихи манғития. Нашри давлати. 1960. Сталинобод, 17 – с.

⁵⁷ Муҳаммад Қосим, «Маноқиб...», 9 – а, б вараклар.

olib ketadi. Islom shayx bir necha yil Qobulda yashab, so'ng o'zlari tavallud topgan Karruxga ko'chib keladilar.

Ko'p tadqiqotchilar Islom shayxning Yurtlarini Karx, ul zotni esa ba'zan Karxiy deb ataganlar⁵⁸. Ko'pgina manbalarda «.)» xarfining ustida «tashdid(“)» belgisi qo'yilgan, bu esa mavze' nomi «Karx» emas balki, «Karrux» ekanligiga dalolatdir. Ul zot esa Karruxiydirlar.

Shunday qilib, ul zot nafaqat tariqat ishlari, balkim shariat Shayxulislomligi vazifalarini birga olib borganlar va hasabu mehnatlari ila mashxur piru mashoyixlikka erishganlar. Ul zoti boborakotning tasavvufiy qarashlari to'g'risida «Ravoyihul – quds» asari muallifi Maqsudi Buxoriy Shunday yozadi: «Uning nomi Muhammad Islom bo'lib, xalq orasida «Islom shayx» ismi ila mashxur. Zuxur etishi Hirotg'a tobe' Karrux mavzeidandir. Ko'pincha changu nay, doirayu rubob kabi asboblar majmuida so'fiylar suhbati xalqasida zikri samo' etar edi⁵⁹». Bundan ko'rindaniki, ul zot bir necha tariqatlarda faol qatnashgan. Ul zoti boborakot asosan Xojagoni Naqshbandiyani hush ko'rardilar.

Janobi Hazrat eshiklar kaliti, qutblar qutbi, zamonasining madadkori, ahli jazaba va oriflarning raisi, orifu mukammallarning quvvasi, asrning tanhosи, o'z zamonasining yaktosi, avliyolar quyoshi, sufiyalar to'lin oyi, muttaqiylar yulduzi, Hazrat Eshoni Shahidi Shahodatpanoh Shayxulislom Karruxiyning pirlari Hazrati Xalifai – zamon G'oyib Nazar, ul kishining piri muraxxaslari Hazrati Eshon Sufi Ollohyor, ul kishini pirlari Hazrati shayx Habibulloh va laqablari «Xalifa Navro'z» der edilar, ul kishini pirlari Miyon Ma'sum, ul kishini pirlari Xoja Ahmad Sarhandiy (Alfi Soniy) va ul kishini pirlari Xoja Muhammad Boqibilloh va ul kishini pirlari Xoja Imganakiy, ul kishini pirlari Xoja Muhammad Darvesh va ul kishini pirlari Xoja Muhammad Zohid Vahshuvoriy va ul kishini pirlari Xoja Ubaydulloh Axrori Vali va ul kishini pirlari Hazrati Mavlono Ya'qubi Charxiy va ul kishini pirlari Xoja Alouddin Attor va ul kishini pirlari Hazrat Xoja Bahouddin al – Buxoriy va ul kishini pirlari Hazrat Sayyid Mir

⁵⁸Ўзбекистон адабиёти тарихи. Тошкент, 1978. «Фан». IV том, 205 – саҳ.; ЭСТ, том – VIII. 403 – саҳ.

⁵⁹ Максуди Бухорий. Равойикул – қудс. 398 – саҳ. Каттахонхожанинг шахс. кутубхонаси, қўллэзма.

Kulol va ul kishini pirlari Hazrat Xoja Boboyi Samosiy va ul kishini pirlari Hazrat shayx Azizon (asl ismlari Xoja Ali Romitaniy) va ul kishini pirlari Xoja Mahmud Anjir al – Fag’naviy va ul kishini pirlari Xoja Orif Revgariy va ul kishini pirlari Hazrat Xoja Abdulkoliq G’ijduvoniy va ul kishini pirlari Xoja Yusuf Hamadoniy va ul kishini pirlari Hazrat Xoja Ali Farmadiy va ul kishini pirlari Xoja Abul Qosim Gurgoniy va ul kishini pirlari Hazrat Shayx Abul Hasan al – Haraqoniy va ul kishini pirlari Sulton Boyazid Bastomiy va ul kishini pirlari Hazrat Imom Ja’far Sodiq (roziyallohu anhu), ul kishini pirlari Hazrat Shayx Qosim ibn Muhammad ibn Abu Bakr (roziyallohu anhu), ul kishini pirlari Hazrat Salmoni Forsiy va ul kishini pirlari Hazrat Abu Bakr Siddiq (roziyallohu anhu) va ul kishini pirlari Koinotning sayyidi, yaratilganlarning eng afzali, vujudga kelganlarning eng sharaflisi, yaxshilik va ehsonning manbai Janobi Hazrat Muhammad Mustafo salollohu alayhi va sallam (va olihi va ashobihi ajma’in)dir⁶⁰.

Manoqiblarda zikr etilganidek, Hazrati Shahodatpanoh o’z davrlaridagi barcha mashoyixu mutasavvuf ulamolardan ruxsati kulli oladilar. «Ey Islom shayx, bilingkim barcha suluklarni tamom qildingiz. Batahqiq suluki mashoyixlarni sizdek barchasin tamom etgan yigitni hech ko’rgan emasmiz, barakalloh, oliv himmat va sohibi g’ayrat ekansiz (deb, aytadilar Hazrati Xizr alayhissalom)», deya ta’kidlangan (Manoqiblarda).

Manbalarda ta’kidlanishicha, Islom shayx juda katta mol – mulk egasi bo’lgan va uning oshxonasidan 3000 ta gohida 5000 ta faqirlar muntazam ovqat bilan ta’minlanib turilgan⁶¹.

Hazrati Islom shayx Karruxiy umrining oxirgi yillarini Afg’on shohi unga in’om etgan Karrux mavzeida o’tkazib, shu erda 1807 – yilda vafot etadilar. «Ravoyihul quds» asari muallifi shunday yozadi: «Oxirgi vaqtarda Shayx Xazratlari Jom va Xirotdagи ravofizlarga qarshi kurashardilar va 1222 yil⁶²da ravofizlar qo’lida shahid bo’ldilar. U kishining jasadlarini Karruxga olib borib, o’z chorborg’lariga dafn qildilar»⁶³. Ayrim tadqiqotchilar Islom shayxning vafot etgan yillarini «1804 yil» deb, ta’kidlashadi.

⁶⁰ Мұхаммад Қосим, «Маноқиб…», 19 – 20 а, б вараклар.

⁶¹ Ҳозик «Воқеот…», 6 а варак.

⁶² Milodiy 1807 yil.

⁶³ 398 – sahifa.

Boshqa bir manbada:

G'azali digar baroi Shayxulislom.

Ayo pirim sanga butkul fido bo'lsun aziz jonim,
Ayo piri mehribonim mani san Shayxulislomim.
Etar erdim murodi iddaomki bo'lsam beshak qurboning,
Erursan mohitobonim, ki ravshan aylagan jonim.
Hamroh bo'l madim sanga, bu armon ko'b qoldi manga,
Boshimni bermadim anga, yurakda budur armonim.
Koshki ba kor bo'lsam erdi, xizmatingda tursam erdi,
San birlan jon bersam erdi, ey pur mohitobonim.

Olami arvohda anga, ki man tobe'i ersam sanga,
Ulug' yo'l ko'rsatding manga, ey muztari jonom.
Ki man g'arib, javob bo'lgon manzilikim, bitib imzo,
Hamisha zor yig'larman, ayo ey Yusufi Foni.
Ki Najmiddin bayon qildi, ko'zi yoshlik, dili g'amgin,
Alifu, royu kofubedur⁶⁴, torixing ayo sultonim.

Abjad hisobi bo'yicha й(Alif) –1000, ў(Re) –200, Қ(Kof) –20, Ҷ (Be) – 2ga teng, jami xijriy 1222 yil bo'ladi. Abdulaziz Xoja Amir Kuloliyning «Tazkirai Mashoyixi mutaaxxirini Buxoro⁶⁵» asarida ham Islom shayxning vafotlarini xijriy 1222 yil deb ta'kidlangan. Demak, Janobi Shayxulislom – Islom shayx Karruxiy xijriy 1222 (mil. 1807) yil sakson olti yoshlarida vafot qilganliklarini manbalar tasdiqlamoqda.

⁶⁴«Risolai doston», Karruxiylar haqida. Mirzo Kalimulloh (O'zbekxon) shaxsiy kutubxonasida.

⁶⁵ 1863 yilda yozilgan, O'FAAB nomidagi Sharqshunoslik Instituti q.f. inv/79/V, 73 – b varaq.

Hazrati Islom shayx Karruxiy hayotlari davomida bir qancha Xalifa shogirdlarni tarbiyat etganlar. Ular o’z navbatida xalq tinchligi, osoyishtaligi, Yaratganning va Uning habibi sunnatiga amali mukammal ila, hidoyat yo’lida xizmat qilishgan.

Hazrati Karruxiyning shayx Mirzo Abul Hasan, Mirzo Junaydulloh Hoziq va Mirzo Alouddin kabi bir necha farzandlari bo’lgan. Bulardan shayx Mirzo Abul Hasan otalaridan irshodi kulli (doimiy pirlik qilish huquqi)ni olib, tariqai Naqshbandiya, Yassaviya, Kubroviya (va yana bir qancha) suluklarini davom ettirganlar. Shayx Mirzo Abul Hasan Fayzobodiyning o’g’illari shayx Mirzo Abul Fath Karruxiy as – Samarqandiy (1801 – 1888), u kishining farzandlari Qutbul – olam Hazrati shayx Mirzo Abu Turob Karruxiy as – Samarqandiy (1845 – 1918), u kishining farzandlari shayx Abdul Xaq Mirzo Tohir Karruxiy (1880 – ?), yana bir farzandlari Hazrati shayx Mirzo Amonullaxon (Qizil Eshon) Shavdariy (1889 – 1974), u kishining farzandlari Mirzo Habibulloh Boboxon (1919 – 2005) hadis, fiqh, e’tiqod va tasavvuf ilmida etuk bo’lib, bu ulamo atrofidagi talab ahlining ma’naviy kamolotiga ko’ra, «shayx Boboxon», «shayxi piri dastgir» va otalari Mirzo Amonullaxon kabi «Qizil Eshon» nisbalari bilan atalib kelingan. U kishining farzandlari Mirzo Kalimulloh O’zbekxon Eshonbobo (1953 yil) Islom shayxning oltinchi avlodlaridir.

Janobi Hazrat Eshoni Shahidi Shahodatpanoh martabada shayx uz – zamon va mahbubi Hazrati Rahmon va do’sti Sulton haqiqiy va maqomlari esa «shayx ur – raisul – islom va ahlul irfon va orifibilloh va habibi – illalloh» bo’ldilar, Alloh ta’oloning shafqat va haqiqat jazabalari bilan jazb qilishig’a ettilar va maqomlari «a’lo» va «raisus – solikin» bo’ldilar va nuri ilohiyg’a vujudlari g’arq bo’lib, asrori ilohiydin olib, toliblarni ma’rifatg’a vosil qildilar va birodarklarig’a muhabbati ilohiydin xabar berdilar va ta’lim qildilar va zalolatg’a ketganlarni shafqatguzorliq, muruvvat va muhabbat bilan yo’lg’a soldilar.

Janobi Hazrat Eshoni Shahidi Shahodatpanoh Shayxulislom – Muhammad Islom shayx Karruxiy ham mana shunday etuklik pog’onalarini bosib o’tib, zabardast tasavvuf namoyandasasi sifatida dini Islom uchun xizmat qilgan, xalq, Yurt osoyishtaligi yo’lida

zahmat chekkan ulamolarimizdandir. O'tmishda o'tgan ahli peshvolarning ruhoniyatlari barchamizni tarbiyat etsin⁶⁶.

1747 yilda Nodirshoh Afshor o'ldirilgach, uning sodiq Buxorolik vakili Muhammad Hakimbiy o'g'li Muhammad Rahimbiy so'nggi ashtarxoniy Abulfayzxonni o'ldirib, 1756 yilda Buxoroni amirlik deb e'lon qiladi. Shu voqelik bilan hokimiyat tepasiga Mang'itlar keladi.

Risolada xabar berilishicha, Nodirshoh shu vaktlarda (1736-1740) Turkiston viloyatini egallab, turli ulkalardan kup kishilarni asr olib, Maxshadga keltiradi. Hozikning otasi Islom shayx xam Nodirshoh bilan birgalikda Mashxadga borib, u erda 15 yil turadi. Nodirshoh vafotidan sung, turli viloyatlardan keltirilgan kishilar uz ulkalarga kaytib ketishadi. Bu vaktlarda Mashxada Nodirshoh xizmatida bulgan mangit jamoasining sardori Muxammad Raximxon Buxoriy xamroxligida juda kup kishilar Buxoroga kelishadi. Islom shayx xam uz vataniga bormay, Muxammad Raximxon bilan birga Buxoroga keladi.

Muxammad Raximxon Abulfayzxonni o'ldirib, Buxoro taxtini (1753-1758) egallaydi. Islom shayx Muxammad Rahimxonning marxamati bilan avval yasavulboshi, keyinroq esa yuzboshi lavozimlarida ishlaydi va Buxoroda 12 yildan ortik hayot kechiradi.

Bu orada Buxoro taxtini Shohmurodxon (1785-1800) egallaydi. Islom shayx bu vaktlarda uz zamoni bilimlari darajasiga kura etuk olim va donishmand kishi sifatida kata shuxrat kozongan edi. Uning xuzurida barcha olim va donishmandlar, ruxoniylar va feodal xukumdorlar xam xurmat va tavoze' kursatishar edilar.

Amir Shohmurod yoshligidan xudojoy, porso bo'lib o'sgan. Madrasani bitirib darvishlik suluki soliklaridan biriga aylanadi. Shuning uchun xalq uni hurmat bilan "amiri ma'sum"⁶⁷ (begunoh amir) unvonini bergen. Shohmurod darvishona hayot kechirar, shayx maslahati bilan bozorda hammollik qilardi. Keyin esa pichoqqa qin

⁶⁶ «Марказий Осиё тарихи: манбашунослик ва тарихнавислик изланишлари» Тошкент.2010 йил, 213-224 бетлар.

⁶⁷ Nosiriddin Buxoriy. Tuhfat uz-zoirin. Xijriy 1328 (mil. 1909) y. Buxoro. Toshbosma. Fors-tojikcha. -94 varaq.

yasab sotib, Shu orqali ro‘zg‘or tebratgan. Uning xalq orasida obro‘si katta bo‘lganligi uchun Doniyolbiy uni o‘ziga valiahd etib tayinlashga majbur bo‘lgan. XVIII asrning 20-yillarida boshlangan o‘zaro kurashlar natijasida Samarqand talangan, vayrona holiga tushib qolgan edi. Amir Shohmurod esa ko‘plab quruvchi, koshinpaz va naqqosh ustalarni tevarak atrofdan olib keltirib, Samarqand shahrini qayta tiklashni buyurdi. Qayta qurilajak shahar tarhini Amir Shohmurodning o‘zi chizib bergan. Amir Shohmurod bundan tashqari, G‘uzor tumanida madrasa va masjid qurdirgan. Shahar markazida olti qirrali chorusu qurilib, “Toqi musaddas” deb atalgan. Samarqandning har bir madrasasiga imom, muazzin, mudarrislarni Shohmurodning o‘zi tayinlagan.

Otasi davrida qisqartirilgan vaqf yerlari miqdorini oshirdi. Bu bilan islom ruhoniylari e‘tiborini qozondi.

Xoziqning ma’lumotlariga ko’ra, Islom shayxning izzat va obro‘yi balangligidan g’ayirlik qilib, Shohmurodxonning yaqin kishilaridan biri shayx Safar uni xonga yomonlaydi, xato uni toju taxtini egalash payida bulgan bir kishi sifatida xarakterlaydi. Xon esa, maxsus bir majlis uyushtirib Shu majlisga IslomShayx to bu erga kelganiga kadar Shohmurodxon majlis ahliga « u kelsa, o’rindan turmaslikni, izzat va ikrom kilmaslikni, u bilan qattiq munozara kili, obro’sini ko‘pchilik oldida yaxshilab tukishini»⁶⁸ buyuradi. Ammo Islom shayx – majlisga kirib kelishi bilan Shoxmurodxonning o‘zi birinchi bo’lib beixtiyor o’midan turadi va tavoze’ ko’rsatib, joy beradi, so’ngra majlis axli xam unga ergashib, izzat va ikrom ko’rsatadi. Islom shayx Shohmurodxonning dastlabki maqsadini payqagan edi: Shuning uchun xam u Shoxmurodxonga qarata uning ig’vogarlari gapiga uchganini, hukumat va saltanat ixtiyor qilish fikri xatto hayoliga xam kelmaganini aytadi.

Shohmurodxon uz niyatidan qaytib, uni qanchalik ehtirom qilmasin va xatto o‘zi murid bo’lishiga taylor ekanligini ma’lum kilmasin, Islom shayx ko‘p o’tmay, Buxorodan butunlay ketish payiga tushadi va Xirot tomoniga yo’l olib, dastlab Xirot yakinidagi Andaxu degan joyga, so’ngra Maymanada istiqomat qiladi.

⁶⁸ «Воқеот...» 4-б, 5-а варак

Yuqorida aytib o'tganimizdek Nodirshoh xizmatida bo'lgan Islom shayx Karruxiy Muhammad Rahimbiy bilan birga Buxoroga kelib, dastlab «Yasovulboshi»⁶⁹, so'ngra Amir Doniyolbiy davri (1761 yil)da⁷⁰ Shayxulislom⁷¹ sifatida faoliyat olib boradi.

Muhammad Islom shayx Karruxiyning tasavvuf tarbiyasi bilan dastlab xalifa G'oyib Nazar shug'ullangan. So'ngra ushu zamonning barcha shayx ulamolari ul zotga ta'lim tarbiya bergenlar⁷². G'oyib Nazar o'z navbatida mashhur shoir davlat arbobi va etuk tasavvuf ulamosi So'fi Ollohyorning shogirdi sanalib, shayx Habibulloh Buxoriy al-Katlosiy esa So'fi Ollohyorning ma'naviy ustozи hisoblanadi va ushbu ustozning laqablari «Xalifa Navro'z» ersada, ko'pchilik tadqiqotchilar ul zotni Xoja Habibulloh Jo'yboriy bilan adashtirib yozuvlarda qayd etishmoqda. Aslida Xalifa Navro'zning ustozlari shayx Hoji Habibulloh bo'lgan, o'zlari esa shayxi Habibullohdir.

Nosiriddin Buxoriyning «Tuhfatuz – zo'irin» asarida: «Hazrati Xoji Habibulloh ibn Xoja Toyyibilloh ibn Xoja Abdulaziz ibn Xoja Muhammad ibn Xoja Mahmud ibn Xoja Nizomiddin Kalon ibn Xoja Jaloliddin ibn Mavlono Ya'qubi Charxiy (Alloh sirlarini muqaddas qilsin)⁷³», deb nasabnomasi keltirilgan. Xalifa Navro'zning ustozи shayx Hoji Habibulloh Mavlono Ya'qubi Charxiyning avlodidir. Xoja Habibulloh Jo'yboriy esa, Jo'yboriy xojalari xonadoni vakillaridan biri bo'lib, nasabi Muhammad Islom Jo'yboriy va Abu Bakr Sa'd orqali Imom Husaynga borib ulanadi.

Masalani qadimiylar qo'lyozma manbalar asosida hal qiliшgа urinsak! «Manoqibi Islom Shayx», «Risolai manoqibi Sulton Karruxiy»⁷⁴ va Shu kabi qo'lyozma manbalarda: «...So'fi Ollohyorning pirlari shayx Habibulloh va laqabi Xalifa Navro'z...», deb ta'kidlangan. Ko'p hollarda shayxlarning ismlari ham tarixiy manbalarda ba'zi tafovutlar bilan keltirilgan. Masalan, Islom shayx Karruxiyni boshqa

⁶⁹ Amir qo'shinlarining boshlig'i

⁷⁰Bu paytda amalda taxtni Amir Ma'sum boshqarar edi. Shuning uchun ayrim manbalarda Amir Shohmurodbiy deb ta'kidlangan, aksincha bo'lganda Amir Shohmurod deb keltirilardi.

⁷¹ Diniy ishlari boshlig'i, amirning vaziri.

⁷² Маноқиб... - 21 – А варак.

⁷³ Tuhfat uz – zoirin. 94 varaq.

⁷⁴ «Risolai manoqibi Sulton Karruxiy» Mirzo Kalimulloh shaxsiy kutubxonasida.

bir manbalarda, Muhammad Islom⁷⁵, shayxlarning qutbi zamoni Shahidi Shahodatpanoh Shayxulislom⁷⁶, hamda So'fi Islom Karruxiy⁷⁷ nomlari bilan tilga olinadi. «Tarixi mutaaxxirini mashoyixi Buxoro»⁷⁸ asarining 72 a, 72 b sahifalarida: «So'fi Ollohyor Xalifa Navro'zning muridi, Xalifa Navro'z esa Shayx Hoji Habibullohning xalifasidir», deb keltirilgan. Bundan tashqari, «Shajarai silsilai Naqshbandiya»⁷⁹da ham quyidagicha: «Eshoni So'fi Ollohyorning ustozи Xalifa Navro'z, ul zotning ustozи esa Eshon Xoji Habibulloh Buxoriy», deb silsilai ma'naviya keltirilgan.

Demak, So'fi Ollohyori O'tarchi Xalifa Navro'z Shahrisabziyning shogirdi. Mazkur Eshon (Xalifa Navro'z) Hazrat Hoji Habibullohning xalifasidir⁸⁰, Maqsudi Buxoriyning «Ravoyih ul – quds»⁸¹ asarining 216 sahifasida: «Ollohquli o'g'li So'fi Ollohyor Miyonkoliy botiniy ilm sohibi, muttaqiy, parhezkordir. Bir necha yil davlat ishlarida ishlab, keyinchalik Xalifa Navro'z dargohiga bordi. Qolgan umrini mujohida va riyozat bilan o'tkazdi», deyilgan.

Bundan biz bilishimiz mumkinki, So'fi Ollohyor daslabki saboq va tasavvufona hayot ta'limotini Xalifa Navro'z Shahrisabziydan olib, ustozning ko'rsatmasiga binoan ta'limni shayx Hoji Habibuloh xuzurida davom ettirgan. Va oxirgi ma'naviy tugallikni (manbalarda ko'rsatilganidek) Xalifa Navro'z Shahrisabziydan olgan.

Manbalarda ko'rib o'tganimizdek, Xalifa Navro'zning ustozи shayx Hoji Habibulloh Buxoriydir. O'z navbatida Xalifa Navro'zning xaqiqiy ismi Hazrat So'fi shayxi Habibuloh Buxoriy bo'lib, ustoz hurmatidan ismlari kunya (laqab)ga ya'ni, «Xalifa Navro'z» deb aylangan.

Ayrim manbalarda So'fi Ollohyorni masnad pillapoyasida shayx Hoji Habibulloh Buxoriydan keyin turishi, tadqiqot ahliga Xalifa Navro'z va shayx Hoji Habibullohlar

⁷⁵ «Ravoyihul – quds»... Kattaxonxoja shaxsiy kutubxonasiда.

⁷⁶ «Risolai...» Mirzo Kalimulloh shaxsiy kutubxonasiда.

⁷⁷ Sayidoi Karruxiy «Devoni g'azaliyot» O'FAAB nomidagi ShI q.f. inv/1666.

⁷⁸ Ushbu asar Abdulaziz Xoja Amir Kuloliy qalamiga mansub bo'lib, O'FAAB nomidagi SHI q.f. inv/ 79/V raqami ostida saqlanmoqda.

⁷⁹O'FAAB nomidagi SHI q.f. inv/5810 raqami ostida saqlanmoqda, 28 – A sahifa

⁸⁰ «Tuhfat...», 63 sahifa.

⁸¹ Ushbu noyob manba yurtimizning etuk manbashunos – tarixchi olimi Komilxon Kataev xonadonlarida saqlanmoqda.

bir shaxs degan tushuncha paydo bo’ladi. Ushbu satrlarni yozuvchi kamina roqim ham dastlab ushbu fikr tarafdarlaridan biri edi, lekin manbalarni sinchiklab o’rganganmizdan keyin bu o’z isbotini topdi. Endi, kitobdagagi satrlarni ushbu tarzda tasnif qilmoq maqsadga muvofiqdir.

Hazrati Eshon Sufi Ollohyor, ul kishini pirlari shayxi Habibulloh (va laqablari «Xalifa Navro’z») ul kishini pirlari shayx Hoji Habibulloh va ul kishini pirlari Miyon Ma’sum va ul kishini pirlari Xoja Ahmad Sarhandiy, ul kishini pirlari Xoja Muhammad Boqibilloh, ul kishini pirlari Xoja Imganakiy, ul kishini pirlari Mavlono Muhammad Darvesh, ul kishini pirlari Xoja Mavlono Zohid, ul kishini pirlari Xoja Ubaydulloh Axror, ul kishini pirlari Hazrat Mavlono Ys’qub al – Charxiy, ul kishini pirlari Hazrat Xoja Bahouddin al – Buxoriy, ul kishini pirlari Hazrat Sayyid Mir Kulol va ul kishini pirlari Hazrat Xoja Boboyi Sammosiy, ul kishini pirlari Hazrat Shayx Azizon, ul kishini pirlari Xoja Mahmud Anjir al – Fag’naviy, ul kishini pirlari Xoja Orif Revgariy, ul kishini pirlari Hazrat Xoja Abdulxoliq G’ijduvoniy, ul kishini pirlari Hazrat Xoja Yusuf Hamadoniy, ul kishini pirlari Hazrat Xoja Ali Farmadiy, ul kishini pirlari Xoja Abul Qosim Gurgoniy, ul kishini pirlari Hazrat Shayx Abul Hasan al – Haraqoniy, ul kishini pirlari Sulton Boyazid Bastomiy, ul kishini pirlari Hazrat Imom Ja’far Sodiq (roziyallohu anhu), ul kishini pirlari Hazrat Shayx Qosim ibn Muhammad ibn Abu Bakr (roziyallohu anhu), ul kishini pirlari Hazrat Salmon Forsiy, ul kishini pirlari Hazrat Abu Bakr Siddiq (roziyallohu anhu) va ul kishini pirlari koinotning sayyidi, yaratilganlarning eng afzali, vujudga kelganlarning eng sharaflisi, hayriyatning manbai Janobi Hazrat Muhammad Mustafo salollohu alayhi va sallam (va olihi va ashabihi ajma’in)dir⁸².

Qashqadaryo viloyati Kitob tumanining (tuman markazidan 30 km masofada joylashgan) Palandara jamoa xo’jaligining Katlos qishlog’ida joylashgan qabristonda Xalifa Navro’zning qabri joylashgan va ul zot ushbu mavze’ ahli tomonidan «Shayxi Habibulloh» nomi bilan atalib kelingan.

Shunday qilib, Xalifa Navro’z – Shayxi Habibulloh XVII – XVIII asrlarda yashab o’tgan ulamolarimizdan, hamda o’z zamonining etuk mutasavvuflaridan biri bo’lgan. Ul

⁸² «Silsilai sharif» Muhammad Haydar. Xijriy 1299 (mil. 1881) – yil. Mirzo Kalimulloh sh.k.da

zot Buxoroda ko'p yillar istiqomat qilib, keyinchalik Samarqandga keladilar va biroz muddat o'tgach (shahardagi notinchlik tufayli) hozirgi Kitob tumani Katlos qishlog'ida umrlarining oxirigacha, xalqga ma'naviy – diniy ta'limotdan ta'lim va tarbiya beradilar.

XVIII asr oxiri va XIX asirning birinchi yarimida yashab ijod etgan iste'dodli zullisonayn shoir, tarjimon va tabib Junaydullo Islomshayx o'g'li Xoziq biografiyasiga oid ma'lumotlar xanuzga kadar juda oz edi; uning taxminan 25-26 yoshlar orasida Buxoroga kelgani-yu va hayotining keyingi yillargina ma'lum edi, xolos. Xoziqning avlod-ajdodlari, yoshlik yillari haqida deyarli ma'lumot yo'q edi. Xoziq ijodining ayrim tomonlari yuzasidan esa ixtilofli fikrlar xam yo'q emas edi.

Xoziq asarlari ayniqsa, uning «Voqeoti Islomiy» risolasi shoir biografiyasiga doir juda muxim ma'lumotlarga ega.

Tojik tilida yozilgan bu asar asosan adibning otasi IslomShayx xaqida esdaliklar, muhim voqealar va xotirotlar bayonidan iborat bo'lgani sababli, Xoziq uni «Voqeoti Islomiy» deb nomlagan⁸³.

Islomshayning bir necha farzandlari bulgan. Ulardan biri Xoziqning akasi Alovuddin 7 yasharligidayoq ajoyib she'rlar mashq kilgan, ammo, u uzoq yashamaydi, 16 yasharligidayoq bevaqt vafot etgan.

Junaydulloh Xoziq Buxoroda tug'ilgan, bolalik yillari Xirotda emas, balki Buxoroda o'tgan.

Tadqiqotchilar Xoziqning Amir Xaydar (1800-1826) zamonida, taxminan 25-26 yoshlarida uni Xirotdan Buxoroga ketgan, shundan sung O'rta Osiyoning turli shaharlarida yashagan deyishadi. Ammo Hoziq o'zining yukoridagi risolasida 22 yoshida Qo'qonda xalifa Atoullohdan arab tilining sarfu naxvi yuzasidan sabok olganini va bu vaktlardan boshlab, arab tilini u kishi vositasi bilan juda mukammal urganganini ma'lum kiladi⁸⁴.

U otasi vafotidan so'ng yana Buxoroga qaytib kelgan yoxud otasi Xirotda kaytib ketgach xam biror karindoshi otasining yor-birodarlari bilan birga Buxoroda koladi. Xar

⁸³ «Voqeot...», 3-a varaq.

⁸⁴ Ushbu asar: 8-b varaq.

holda otasi Xirot atrofida istiqomat qilayotgan paytlarida Xoziq Buxoro madrasasida tafsil olgan. Amir Xaydar o'z farmonlari bilan «madrasa tolib-ulilmii Mulla Junaydulla Maxdum»ga alohuda ahamiyat bergen Xoziqqa bunday moddiy yordam ko'rsatib turilganiga sabab Islomshayxning ko'p vaqtlar Buxoroda yashagani va hali ham ko'pchilik orasida ta'siri, izzat va e'tibori yukori bulgani tufayli edi.

«Voqeoti Islomiy»dan olingan qimmatli ma'lumotlarimizdan biri shoir ijodining 12 yoshlaridayoq she'rlar yoza boshlagan. («Yusuf va Zulayxo», «Voqeoti Islomiy», tabobot ilmiga oid «Taxqiqul – qavoid yoki sharxi qonunchayi mavlono Xoziq»

Umuman Junaydulloh Xoziq hayoti turli sarguzashtlarga boy. O'z zamonida olim, shoir, tarjimon va tabib sifatida Shuxrat kozongan Xoziqni Amir Nasrulloh tomonidan yollangan kotillar 1843 yilning 14 yanvarida vaxshiylarcha qatl etadilar.

Bundan tashqari, Muhammad Islom Karruxiyning Mirzo Abul Hasan, Alouddin... kabi bir qancha farzandlari bo'lган. Mirzo Abul Hasan otasi yo'lidan borib etuk tasavvuf ulamosi sifatida faoliyat olib borgan. Mirzo Abul Hasan taxminan XIX asrning 40 yillarda vafot etgan. Uning Mirzo Abul Fath ismli o'g'li Karruxdan Samarqandga ko'chib kelgan. Mirzo Abul Fath 1801 yilda Karruxda tavallud topgan. Bobosi xonaqoxida bir necha yil ta'lim olib, o'z zamonining olimu fuzalolari bilan hamnafas bo'lган.

Ul zotning o'g'li Mirzo Abul Turob (1845 yilda Karruxda tavallud topib 1918 yilda Tayloq tumani Jumabozor qishlog'ida vafot etganlar) uzoq yillik ta'limdan so'ng Samarqandga keladilar. Bu xijrat taxminan 1860 yillarda bo'lган. Mirzo Abu Turob ushbu yillarda Samarqandda qozi, muftiylari sinovidan ham o'tgan. Bu to'g'risida bir qancha qo'lyozma varaqalar mavjud.

Mirzo Abul Fath ham o'z o'g'illarini ortidan Samarqandga keladilar. Bir necha yillik istiqomat so'ng, ruslar bosqini natijasida xozirgi Tayloq tumani Jumabozor qishlog'iga ko'chib boradilar.

XIX asrning 60-70-yillarida O'rta Osiyonni zabt etgan ruslar musulmonlarga turli tazyiqlar o'tkazdi, oddiy xalqning boshiga ayanchli kunlarni soldi. Bunday xunrezliklarga qaramay Shayx Mirzo Abul Fath XIX – asrning oxirida Jumabozor

qishlog’ida “Xonaqohli, chillaxonali, 8 ustundan iborat masjid” qurdirganlar⁸⁵. Bu yerda tasavvuf ahli ustoz – murshidi ogoh ma’naviyatlaridan bahramand bo’lib kamolotga erishganlar. Shayx 1888-yilda Jumabozorda 87 yoshida vafot etganlar.

Hazrat Shayx Mirzo Abul Fathning ma’naviy ustozlari (va otalari) Shayx Mirzo Abul Hasan, u kishini murshidlari (va otalari) Muhammad Islom Shayx Karruxiy hisoblanadilar.

Ahli tasavvuf Mavlono Jomiy aytganlaridek, karvonboshidurkim, xalqni to’g’ri, hidoyat va poklanish yo’liga boshlaydilar. Ahli tasavvuf islom dini zamirida kibru havoyi nafsdan parhezda bo’lgan eng taqvodor tabaqa hisoblanadi. Bu ahli tasavvuf namoyandalari o’zlarining riyozatchiligi, taqvodorligi va xokusorliklari bilan xalqga, musulmonlarga nafaqat ibrat bo’lib, balki, Shu ishlari orqali islom dinining rivojlanishiga, yuksalishiga buyuk hissalar qo’shganlar.

⁸⁵ Vaqf xujjati. Hijriy 1299 (milodiy 1881) yil. Muallifning shaxsiy kutubxonasida.

2.1. XVIII-XIX asrlarda Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy va diniy hayotda Muhammad Islom Shayx Karruxiy va uning izdoshlari faoliyati

Muhammad Islom Karruxiy Buxoroga kelganidan keyin Naqshbandiya tariqatini chuqr o'rgandi. U Movaraunnahr va uning atrofidagi aholini turli bid'atlardan tozalanishga, islomni shariatga mos ravishda tutishga chaqiradi. Karruxiy bunday tartibni avvalo o'z xonaqohidan boshlaydi va u erda qattiq intizom o'rnatadi. Buning mohiyati islom shariatiga to'la amal qilish, Naqshbandiya asoslariga suyangan holda hayot kechirishdan iborat edi. Mansab va boylik uchun shayxlik qilish yoki mansabdorlarga xushomad qilishni qoralaydi.

Naqshbandiya-Mujaddidiya tariqatining keyingi asrlardagi taraqqiyotiga ta'siri bevosita Muhammad Islom Karruxiy va uning xalifalari va izdoshlari faoliyati bilan bog'liq. Aynan Karruxiying xalifalari va muridlari orasidan etishib chiqqan mashhur naqshbandiy-mujaddidiy shayxlar XVIII-XIX asrlarda Movarounnahr ijtimoiy-siyosiy hayotida katta rol o'ynadilar, diniy sohada tub burilish yasadilar, hukmon doiralar tomonidan diniy islohotlar o'tkazilishiga sabab bo'ldilar.

Chunonchi, bir necha Mang'it hukmdorlarining davlat boshqaruvi mujaddidiy shayxlar rahnamoligida kechdi. Sulola asoschisi Muhammad Rahimning vafotidan so'ng davlat boshqaruvini o'g'li Muhammad Doniyol davom ettirdi. U Kitob va Samarqandni Buxoro amirligiga bo'ysundira oldi. Doniyolbiy hali tiriklik davridayoq hukumat ishlarini uning o'g'li amir Shohmurod Ma'sum boshqaradigan bo'ldi. U juda tadbirkor, shijoatli sarkarda bo'lish bilan birga diniy ilmlarni chuqr egallagan, din arkonlarini to'liq ado etadigan, masjid va madrasalarning obod bo'lishiga harakat qiladigan, ilm ahliga mehr-muruvvat ko'rsatadigan shaxs edi.

O'sha davrda Buxoroda Eshon-i Imlo va boshqa ko'plab Naqshbandiya-Mujaddidiya suluki shayxlari istiqomat qilar va amir Shohmurod ham ulardan biri – Miyon Fazl Ahmad va shayx Safarning izdoshlaridan edi. Bu esa, o'z navbatida, xufya zikrning taraqqiy etishi va jahriy zikrning iste'moldan chetlatilishiga doir harakatlarda asosiy o'rin egalladi.

Naqshbandiya-Mujaddidiya tariqatining yirik peshvosi sifatida Muhammad Islom Karruxiy XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi murakkab siyosiy jarayonlarda muhim mavqeni egallagan. Uning faoliyati o'sha davrda Movarounnahrda vujudga kelgan ijtimoiy-diniy va siyosiy vaziyatning barqarorlaShuvida katta ahamiyat kasb etgan. Garchi Muhammad Islom Karruxiy ning o'zi siyosiy faoliyati, uning ta'liloti va qarashlari Atoulloh Ho'qandiy, Dorulomon, Abdulaziz Badaxshoni, O'zbak Xoja Shaxrisabziy kabi tariqatning keyingi vakillari uchun jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga faol aralaShuvi uchun qulay zamin yaratdi. Quyida Karruxiyning shogirdlari orasidan etishib chiqqan ana shunday mashhur shaxslar xususida so'z yuritiladi.

Muhammad Islom Karruxiyning xalifalari orasida o'z davrida katta nufuzga ega bo'lgan shayxlardan biri, ustozи vafotidan so'ng, uning o'rнiga pirlik qilgan va xirqa kiyib, irshod mas'uliyatini zimmasiga olgan shaxs Xalifa Ne'matulloh hisoblanadi. Hoziq o'z risolasida Shayx Ne'matullohga ta'rif berarkan, shunday yozadi: "Xalifa Ne'matulloh xoja Kindiyda istiqomat qiladilar. Janobi Eshon (Islom) vafotlaridan keyin silsilani boshqardilar va ul zotga barcha ahli xulafolar bay'at berdilar. Ul zotning mulklari bisyor bo'lib, har kuni ming nafar faqir va miskinlar doimiy ovqat bilan ta'minlanib turilgan»⁸⁶.

Muhammad Haydar tomonidan ta'lif etilgan «Silsilai sharif»⁸⁷da shayx Karruxiyning yuzga yaqin xalifa – shogirdlari nomi zikr etilgan. Bundan tashqari Mirzo Junaydulloh Hoziqning «Voqeoti Islomiy» risolasida ham bir necha xalifai zamonlar to'g'risida ma'lumotlar berib o'tilgan. Jumladan, Mirzo Hoziq yozadi: «Hazrati Eshon (Islom Shayx)ning xulafolari bisyor edi. Valekin to'rt xalifaga irshodi kulli (ya'ni doimiy murshidlik qilish huquqi) berishni ixtiyor qildilar, misli Payg'ambar salollohu alayhi va sallam kabi. Ulardan avvali shafqatpanoh va ma'orifi ogoh xalifa Atoulloh

⁸⁶ Mirzo Junaydulloh Hoziq «Voqeoti Islomiya» (yoki «Risolai Manoqibi Shayxulislom Hirotiy» forsiy) O'zFAAB nomidagi SHarqShunoslik Instituti qo'lyozmalar fondi inv № 12240. 10-a varaq.

⁸⁷ Muhammad Haydar tomonidan ta'lif etilgan «Silsilai sharif» xijriy 1299 (mil. 1881) yilda yozilgan bo'lib, ushbu noyob manbada Janobi Islom Shayx (va boshqa Shayxlar)ning halifalari tartib bilan berilgan. Bu manba Mirzo Kalimulloh shaxsiy kutubxonasida saqlanmoqda.

Xo'qandiy edilar. Xalifa Farg'onaning Langaridan bo'lib, Marg'ilon va Andijonda mol – mulklari bisyor edi. Xalqparvar va benihoyat sahovatli edilar»⁸⁸.

Mirzo Junaydulloh Hoziq ushbu xalifa Atoullohdan ikki yil mobaynida arab tili va uning gramatikasini o'rganadi.

Hoziq so'zini davom ettirib shunday deydi: «Yana birlari xalifa Hazrat Eshon haqoiq ogoh va ma'orifipanoh xalifa Mavlono Ne'matulloh edilar. Hazrati shayx Karruxiy vafotlaridan keyin ul zot qoyim – maqom bo'lib, irshod masnadiga o'tirdilar va sohibi silsila bo'ldilar»⁸⁹.

Mavlono Shayx Ne'matulloh Xalifa Mir Mahmud Hisoriy, xalifa Otash Muhammad Xo'qandiy, xalifa Muhammad Amin Qarotakiniy, xalifa Ismoil Badaxshiy, xalifa Sayid Akbar Xoja Maymanakiy, xalifa Muhammad Rahim Xoja, xalifa Shokir Xoja Samarcandiy, xalifa Mullo Nur Muhammad Buxoriy, xalifa Mirzo Aburahim Andxuiy singari zamonasining etuk ulamolarini tarbiyat etgan tasavvuf peshvolaridan hisoblanadilar.

Xalifa Muhammad Sayyid Xoja (Karruxiy) Hazrati Eshon (Islom Shayx)ning xizmatlarida turib, doimo hamsuhbat edilar. Bag'oyat olim va fozil Xalifa, «Ganjinanoma» va yana «Devon»i g'azaliyotni tasnif etganlar. Umrlarining oxirigacha Hazrati Eshonning xizmatlarida bo'lib, ustozlari bilan shahidlik maqomi ila xijriy 1222 (milodiy 1807) yilda vafot etadilar⁹⁰.

Xalifa Mullo Boqiy Samarcandiy tafsiri oyati Qur'on va Nabiy salollohu alayhi va sallamning hadislari bobida komili mukammal edilar. U kishi aytdilar: «Man Eshon (Islom shayx)ning ziyyaratiga bordim va xizmatlariga kirib irodat va inobat keltirdim. Eshonning suhbatida xozir bo'lган ba'zi muridlarni majzub sifatida ko'rdim. Ularning tillarida doimo zikri «Alloh» va Kalomulloh erdi va yana salovot bisyor aytib marhum anbiyo va avliyolarga bahshida qilishardi⁹¹».

⁸⁸ Hoziq «Voqeot...», 8 – a, b varaqlar.

⁸⁹ Ushbu asar, 10 – a varaq.

⁹⁰ 11 – a varaq.

⁹¹ Ушбу асар, 25 – b varaq.

Xalifa shayx Dorulomon Hazrati Islom shayx Karruxiyning eng yaqin Xalifalaridan biri bo'lib, o'z davrining etuk shayxlaridan bo'lган. Bu xaqda manoqiblarda ham ta'kidlab o'tilgandir. Jumladan, Qo'qon xoni Xudoyorxon vafotidan oldinroq Hirotning Karruxida, shayx Dorulomonning xonaqosida bo'lib, davolangani to'g'risida tarixchi Ibrat o'zining «Farg'ona tarixi»⁹² asarida ma'lumot berib o'tgan.

Qutbul aqtob, g'avs uz – zamon, o'z davrining etuk mutasavvuf olimi Xalifa Shayx Dorulomon ham ustozi kabi Xalifa – shogirdlar tarbiyasiga alohuda e'tibor qaratadi (jumladan, Xalifa Bahouddin Xorazmiy, Xalifa Muhammad Qosim Xorazmiy, Xalifa Abdurasul Xoja Xorazmiy, Xalifa Mirzo Maxdumi kirom Mir Abdulholiq, Xalifa Zayniddin Qaysariy, Xalifa Muhammad Same' Maymanakiy, Xalifa Xoja Joni Buxoriy⁹³ kabi o'nlab shogirdlarni tarbiyat etgan).

U «Silsilai sharif»da shayx Karruxiy va shayx Ne'matullohdan so'ng, murshidlik masnadiga o'tirgan.

Janobi Hazrat Eshoni Shahidi Shahodatpanoh – Shayxulislom Karruxiyning (tasavvufiy manbalarda Islom shayxning ismlari shunday keltirilgan) tasavvuf tarixida chuqur iz qoldirgan yana bir etuk Xalifalaridan biri Xalifa Oyxoja Turkistoniy bo'lib, u 1773 – yilda Turkistonda tavallud topgan.

Xalifa Oyxoja avval Shosh (xozirgi Toshkent)ga, undan keyin Buxoroga borib, etuk ulamolardan saboq oladi. Shundan so'ng Afg'onistonidagi «ustozlarning – ustozi» Islom shayxning oldiga boradi.

Islom shayxdan tariqat odoblarini o'rganib, o'z qobiliyati tufayli pirining nazariga tushadi. Bir kuni ustozi shogirdlariga «irshod» berish maqsadida barcha muridlarini chaqirib sinov o'tkazadilar.

Islom shayx o'zлари o'tirgan xonaqohga kirish eshigining ostonasiga «Qur'on» oyatini qog'ozga yozdirib, ko'mdiradilar va barcha xizmatga xozir bo'lgnarlarni Shu eshikdan kirishini aytadilar. Mazkur eshikdan ko'p yillardan beri xizmat qilayotgan

⁹² Ибрат. Фарғона тарихи.Т. “Камалак”.1991.322 – бет.

⁹³ «Silsilai...»

Xalifalar shoshilganicha ostona xatlab o'ta boshlaydilar. Oyxoja (va bir qancha Xalifalar) ostona xatlab kirmay tik turib qoladi(lar).

Ustozi: «Sen nega kirmading?»

Oyxoja: «Agar ruxsat bersangiz ostonadin Qur'onne ko'tarib olay», deb aytadilar. Ahli majlis xozirlar bu holni ko'rib hayriyat ila duoga qo'l ochadilar.

Oyxoja, Maral, Qulbo'ldi, Qosim Eshon, Mavlaviy O'zbak Xoja Shahrishabziy kabilar (jami 40 kishi) Islom shayxdin xatti irshod (pirlik huquqini beruvchi sanad) oladilar. Islom shayx Xalifa Oyxojaning qo'liga bir aso va boshiga kulohi – namad kiydirib, shunday deydilar: «Ey shogirdim, mana bu aso (ni erga suqing va) qaerga ko'karsa, o'sha joy sizning makoningizdir», deb ta'kidlaydilar.

Oxirul – amr, YAngiqo'rg'on (Qozog'iston) atrofida aso ko'karadi, «pirim aytgan joy Shu» deya, o'sha joyni makon tutib, masjid, xonaqoh va boshqa bir qancha binolarni bunyod etadi.

Xalifa Oyxoja 1857 – yilda 84 yoshida Oqtosh (Qozog'iston)da vafot etganlar.

1882 – 1884 yillarda Xalifa Oyxojaning nabirasi Ota Maxzum bobosi nomiga masjid qurdirgan. Xalifa Oyxojaning xalq orasida shunday naqli bor: «Qanday odam bo'lsang–da, yomonchilik o'ylama, qo'lingdan kelsa yaxshilik ista, shunda o'sasan, unasan, ko'karasan⁹⁴».

Kamina roqim bir necha yillar oldin Xalifa Oyxojaning avlodlaridan bo'lgan Xalifa Sulton Ahmad Mahsum (Mirzo Amonullaxon Shavdariyning etuk xalifalaridan biri) bilan hamsuhbat bo'lganimda, ul kishi sharafli piru bobokalonlari xaqida so'zlab bergandilar. Hozirgi kunda ham Xalifa Oyxojaning avlodlari O'zbekiston, Qozog'iston va boshqa bir qancha davlatlarda istiqomat qilib kelishadi.

Bulardan tashqari Hazrat Islom shayx Karruxiy Xalifa Abdulaziz Badaxshoniy, Xalifa Sayid Ahmad Xoja Maymanakiy, Xalifa Mavlono Mir Obid Kobuliy, Xalifa Avaz Muhammad Buxoriy, Xalifa Hoshim Peshovariy, Xalifa Mullo (Qozi Muhammad) Solih Xoja Buxoriy, Xalifa Mullo Boqi Samarqandiy, Xalifa Muhammad

⁹⁴ Жапарұлы Б, Омарұлы Ж «Қожы Мәди (Дуана) қожа баласы Бақмұхаммедтің ұрапқтары» Алматы, 2002 жыл 44 – 60 бетлар.

Qandahoriy, Xalifa Miroxur Buxoriy, Xalifa Abu Nasr Buxoriy, Xalifa Mir Hoshim Ansoriy, Xalifa Olim Xoja Qarshigiy, Xalifa Abdullatif Xorazmiy, Xalifa Mirzo Toxir Xo'jandiy, Xalifa Muhammad Solih Xo'jandiy, Xalifa Shamsiddin Buxoriy, Xalifa Abdurahim Buxoriy, Xalifa Shoh Shujo' Buxoriy, Xalifa Shohniyoz Turkmaniy, Xalifa Faxriddin Xo'qandiy, Xalifa Mullo Mirakshoh Hisoriy, Xalifa Sayid Ibrohim Balxiy, Xalifa Mir Ahmadjon Balxiy, Xalifa Nuriddin Xoja Hisoriy, Xalifa Boqi Miyonkoliy, Xalifa Ismoil Xoja Kosoniy, Xalifa Katta Xoja Buxoriy⁹⁵ kabi yuzlab shogirdlarni hol va qol ilmlaridan bahramand qilib, zamonasining etuk mutasavvuflari etib tarbiyat etgan sohibkaromat valiyullohdirlar.

⁹⁵ «Silsilai sharif», «Voqeoti Islomiya» va hok...

2.2. *Tadqiqotga doir qo'lyozma manbalarning ta'lif – tarbiyaviy ahamiyati*

Tasavvufdagi eng muhim masalalardan biri inson mavzusidir. Ammo insonning vujudiy emas, balki ruhiy tuzilishni bilan holu xarakatlari diqqatga sazovordir. Ma'lumki, inson badan va ruhdan iborat bir borliq bo'lib, uning insoniy tarafini rus tuzilishi tashkil etadi. Tasavvufiing g'oyasi inson ruhidagi ma'naviy kamolotni yuksaltirishdir, buni amalga oshirar ekan tasavvuf, avvalo, inson ruhiyatini tahlil etadi. Sufiylarning ruh to'g'risidaga karashlarini yuqorida aytib o'tganimiz uchun ularni bu erda takrorlab utirmaymiz. Ammo shuni eslatish joizki, Qur'oni Karimda ruhning moxiyatini bilib bo'lmaslik va uni Allohnинг o'zidan boshqa xech kim bilmasligi⁹⁶ ta'kidlangan bo'lsada, sufiylar inson ruhini qattiqdan latifga karab qalb (nafsi notiqa), ruh, sir, cippyc sir, xafiy va axfo kabi ismlar qo'yib "latoifi sitta" nomi ostida tartibga solganlar. Ilk mutasavviflar esa inson ruhiga uning takomil darajalarini xisobga olib tab, nafs, qalb, sir va ruh singari ismlar qo'yganlar. Mazkur latoifi sittaning har biri "nafs martabalari" baxsida izoxlanganidek, nafs (ruh)ning bir martabasiga muvofiq kelmoqda. Ruh qattiqdan latifga qarab har bir, bosqich bosishida Allah bilan o'rtasidagi pardalardan biri ko'tariladi va axfo martabasiga etganda orada xech qanday parda qolmaydi. Bu martabaga erishgan ruh dunyoga kelishdan oldingi sofligini qaytadan qozonadi va Haqqa yakinlik mushoxada etadi. Bu martabaga erishgan kishiga tasavvufda ta'limotida "insoni komil" deyiladi.

Vahdati vujud falsafasida insoni komil masalasi muhim o'rinni olgan. Tasavvufdagi insoni komil tushunchasiga vahdati vujud falsafasidan ajratmoq mumkin emas. Bu tushuncha mazkur falsafaning xususiyatlaridan voqif bo'limguncha etarli darajada anglashilmaydi.

Qisqacha aytadigan bo'lsak, mutasavviflar insoni komil deganda quyidagacha fikrlaganlar: "Yashirin xazina edim. meni bilib-ta-nishlarini istadim, mahluqotni yaratdimki, meni tanib-bilsinlar".

⁹⁶ Исро сураси, 17:85.

Inson dunyoda qilgan ibodati, zikri va xokazo solih amallari bilan ruhini moddiy olamning ta'siridan va xasadidan qutqarib, bu qobiliyatini yuzaga chiqaradi. Bu ish, avvalroq, izoh etganimiz sayru sulukning martabalarini bosib o'gish orqali amalga oshadi. Mutasavviflar fikricha, olam - buyuk inson, inson esa - kichik olamdir. Insonning jismoniy tuzilishi olamning moxiyati-mag'zidir. Olamda mavjud xar narsaning bir namunasi insonda ham mavjud. Inson zoti jihatidan keyin yaratilgan va Haqdan g'ayri. Ammo u ega bo'lgan ilohly haqiqat jihatidan esa Haqning o'zidir, deyilgan. Shu jixatidan, ya'ni shu haqiqati va ma'naviy jihatni ila inson "olami qubro"dir deganlar.

Komil inson Muhammad Islom Karruxiy nazdida komil inson - atrofida butun borliq olami aylanayotgan bir qutbdir. Borliq yaratilgandan beri komil inson bordir va uning o'ziga xos haqiqati bor. Dunyo yaratilgandan beri har xil paygamarlar shaklida kuringan ham komil insondir. Qiyomatga qadar eng ulug' valiy (qutb) ham.

Mutasavvif-faylasuf merosida komil inson muammozi ana Shu ruh darajalari bilan bog'liq holda olib qaraladi.

"Tarbiyati mashoyix uldurki bahrai tariq bo'lsa, qalbig'a tavajjuh qildirur. Ki qalb uldurki lahm sanavbariki, oning dili ham derlar. Zarur shuldurki tavajjuhni qalb(ga) olib o'ltursunlar – oni «vuqufi qalbi» derlar. Boyadki, jami' avqot va ahvoli voqifi dil bo'lurlarki, nafsi g'aflat va faromushlikda umrlarin o'tkarmasunlar"⁹⁷.

Karruxiy nazdidagi komil inson, eng avva-lo, yuksak axloq egasi; uning erdag'i vazifasi halollik va rostgo'ylikni qaror toptirish, yomon rasmu rusumlarni yo'qotib, yaxshi, ezgulikka boshlaydigan qonun-qoidalarni joriy etish, odamlarni Xudoga tomon da'vat qilish. Bu darajaga etishish uchun esa inson o'zini anglab etishi kerak. Zero, allomaning fikricha, o'zini anglamagan kishi hech narsani anglamay dunyodan o'tadi.

Inson o'zini to'la anglashi uchun u to'rt maqomni bosib o'tishi kerak: xayrli so'z, xayrli ish, xayrli xulq, ma'rifikat⁹⁸. Mazkur maqomlarga erishish oson emas; butun borlig'i bilan berilib harakat qilgandagina, o'zini unutib, o'zligiga erishganda-gina

⁹⁷ "Manoqib..". 55 – а варак.

⁹⁸ «Маноқиб..» 77 – б варақ.

inson ularga muyassar bo'ladi. Bu holni mutasavvif - faylasuf shunday obrazli shaklda ifodalaydi: «Birida o'lman odam, ikkinchisida tug'ilmaydi. Hordiqni istasang - ishda o'lgin, Xudoni istasang - o'zingda o'lgin. O'z ishingda o'lmasang, hordiqni izlama, o'zingda o'lmasang, Xudoni izlama». Lekin maqsad «Xudoni izlash bo'lmasligi kerak, chunki Xudo hamma erda mavjuddir va uni izlashning hojati yo'q. Borliqning vujudi - Undan... butun borliq Uning o'zidir». Shu sababli inson yuqoridagi to'rt martabani chetdan izlashi kerak emas, ular insonning o'zida mavjud: «...senda avval boshdag'i va oxirdagi ilmu ma'rifat yashiringan, nimaiki izlasang, o'zingdan izla, nega tashqaridan qidirasan?»⁹⁹.

Demak, komillikka inson qadam-baqadam etishib boradi, lekin bu darajalar mutlaq diniylikni taqozo qilmaydi, balki dunyoviy hayotda ham pok bo'lishni talab etadi. Aziziddin Nasafiy buni shunday ifodalaydi: «Ey darvesh, ifrotiy (haddan oshiq) ro'za va namozga berilib, ketma-ket hajga borma, buyurilgan farzni ado etish bilan cheklan», - deb yozadi. Xo'sh, qolgan umrni nimaga bag'ishlash kerak, degan savol tug'iladi. Faylasuf-shayx bunga shunday deb javob beradi: «...shunday yo'l tutginki, qalbing saxovat va hikmatga to'lgan bo'lsin, ezbilik sohibi bo'lgin... qalbing haqgo'ylik (rostlik) va ezbilik bilan bezansin, toki inson degan ulug' nomga munosib bo'lsang do'zax azoblaridan qutulasan... sening haqiqating (mohiyating) to'g'rilik va xayrli ishlar ijod qilish bo'lsin».

Muhammad alayhissalom nuridan so'ng lohut olami vujudga kelgan. Lohut olami ilohiyot olami demak, undan keyin jabarut, ya'ni buyuklik olami va uning ketidan malakut olami-farishtalar olami yaratildi. Lohut Haq zotini ifodalasa, jabarut nurlardan iborat olamdir, malakut esa latif nurlardan tuzilgan olam. Ammo aytib o'tilgan olamlarda shakl-a'raz yo'q. Bu xususiyat jismlar olami bo'lishi mulk olamiga xos. Mulk olamini shahodat olami yoki olami nosut ham deydilar. Bular dan tashqari, ayrim nazariyotchilar badan olami, ya'ni inson olamini ham alohuda olam sifatida qayd etganlar. Chunki inson olami sag'ir (kichik olam) sifatida olami kabir (kata olam) deb

⁹⁹ Насафий Азизиддин. Зуббат ул-хақойик. Н.Комилов таржимаси. Т., Камалак, 1995. 53 – 54 бет.

nomlanadigan yuqori olamlarning xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Mazkur qarash insonning ikki asosdan iboratligini yana bir karra tasdiqlaydi”¹⁰⁰.

Tavba tasavvuf ta'limotida muhim o'rin tutuvchi unsurlardan biridir. Bunda kishi o'zining jamiyat hayotida tutgan o'rniga tanqidiy nuqtai nazardan qarashi, xulq-atvori, xatti-harakatidagi salbiy jihatlarni ko'ra bilishi, Shu vaqtga qadar qilgan ishlardan pushaymon bo'lishi va ularni takrorlamaslikka qat'iy qaror qilishi tuShuniladi.

Qur'onning “Tavba”, “Nur”, “Baqara”, “Nasr”, “Hud” suralarida banda tavba qilishga buyurilib, tavba tufayli inson gunohlardan poklanishi uqtiriladi. Shu sababli tasavvuf ta'limotida tavbaga alohuda e'tibor beriladi. Zero, gunohlardan tiyilib, o'z ma'naviy hayot tarzini o'zgartirishga ahd qilgan odamgina tasavvufga qadam qo'ya oladi. Ko'rindiki, tavbada asosan insonni gunohga etaklovchi nafshi jilovlash ko'zda tutiladi. O'z naffsiga egalik qilgan kishi gunohlardan uzoqlashib, jamiyatga manfaati tegadigan ezgu amallar bilan shug'ullanadi. Boshqacha aytganda inson ruhiy olamida inqilob bo'lib, u yangi davrga qadam qo'yadi.

Tasavvufning eng buyuk xususiyatlaridan biri, faqat nazariy jihat bilan cheklanib qolmay, tasavvuf tamoyillarini tariqatlar yo'li orqali amaliy hayotda tadbiq etish hamdir. Nazariyotda “tasavvuf” deb atalgan ba oqimga amaliy hayotda “tariqat” deyiladi. Shuningdek, tasavvufning ko'pgina masalalarini etarlicha anglay olmoq uchun faqatgina nazariy bilim etmaydi: ibodat, zikr, mujohada va riyoza orqali qalb ushbu masalalarni idrok etadigan soflikka erishadi. Tasavvvuf amaliy turmush tarziga asoslangani uchun, bir tomondan uning nazariyasi ishlab chiqilar ekan, ikkinchi tomondan tariqatlar paydo bo'lib, tasavvufiy turmush tarzining qoidalari belgilangan. Dastalab, shaxsiy ma'naviy hayot tarzi bo'lib ko'ringan tasavvufiy turmush tarzi astasekin ijtimoiy-jamoat holiga aylangan.

Tasavvuf bag'rida qodiriya, yassaviya, kubraviya, chishtiya, suhravardiya, naqshbandiya, xilvaliya, mavlaviya va boshqa bir qancha tariqatlar shakllangan va

¹⁰⁰ Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Мовароуннахр-Ўзбекистон, 2009.- б. 42-43

rivojlangan¹⁰¹. Olimlarning aniqlashicha, tasavvufda 160 dan ziyod tariqat tarmoqlari bo’lgan. Tariqatlarning ko’pligi ham e’tirozlarga sabab bo’lmaydi. Har bir tariqat sohibining zikr va odob darslari boshqa-boshqa bo’lsa-da, maqsadi bitta: Alloh roziligin topish, Allohning sevgan va rozi bo’lgan bandasi sifatida uning jannati va jamoliga musharraf bo’lish¹⁰². Yo’l tanlashdagi usul farqi asosiy g’oyaga taalluqli emas. Shu bilan birga tariqatlarni turlicha tasniflashgan. “Bu tasniflarning ko’pligi, ularning asosidagi o’lchovlarning xilma-xilligiga borib taqaladi” deydi U.Turar va tariqatlarning asosiy tasniflari, unsurlari, yirik maktablari va ularning asoschilariga bat afsil to’xtalib o’tadi¹⁰³.

“Tariqatni tasavvufning amaliy qismi, deb ta’riflaydilar. Darhaqiqat, shunday, chunki pir-muridlik qoidalari, odobiga rioya etish, solik (ya’ni, tariqatga qadam qo’yan yo’lovchi) bajarishi kerak bo’lgan barcha yo’riqlar, irodat va ishorat usullari Shu tariqat ichiga kiradi”¹⁰⁴. Pirsiz solik manzilga etolmaydi. Chunki odam o’zini o’zi nazorat qilishi qiyin, toki birov rahnamolik qilib, yo’l ko’rsatmasa, mushkuli oson bo’lmaydi. Rahnamo bo’lmasa, hatto eng yaxshi niyatlar ham samara bermay, qalbdagi zavqu shavq noto’g’ri yo’lda sarf bo’lishi, muhabbat isyonga aylanishi hech gap emas. Shuni e’tiborga olib, tajribali pirga qo’l berib, iroda-ixtiyorni unga topshirganlar. Shu ma’noda tariqatni irodat ham deydilar.

Hazrati Xoja Bahoudin asos solgan suluk “naqshbandiya” deb ataladi. “Naqshband” so’zi Hazrati Xojaning laqablari bo’lib, matoga naqsh(gul) solishni bildiradi. “Maqomot”ning bir yerida Hazrati Xoja mato to’qiydigan do’konlari borligiga ishora qiladilar. Bu so’zning ramziy ma’nosи ham bo’lib, muridning qalbiga Alloh muhabbatini naqshlanganligini bildiradi. “Hazratga Naqshband nomini berilganligiga ikki sabab bor. Biri shuki, bu zoti sharif kimxoga, ya’ni matoga naqsh solish (gul solish) kasbi bilan shug’ullangan. Ikkinchisi esa, naql qilinishicha, Hazrat Bahouddin kim bilan

¹⁰¹ Мулло Мухаммад Назар ибн Мулло Мухаммад Аваз ибн Мулло Мухаммад Яъкуб ибн хожи Кўзлук ота. Бўстонул мужин. Хижрий 1221 (мил.1806) йил. Араб-форс-туркча. кўлёзма. 119 сахифа. Муаллифнинг шахсий кутубхонасида.

¹⁰² «Манокиб...». 86 – а варак.

¹⁰³ Турар Усмон. Тасаввув тарихи. – Т.: Истиқол, 1999.- б. 62

¹⁰⁴ Комилов Н. Тасаввув. – Т.: Мовароуннахр-Ўзбекистон, 2009.- б. 23

suhbatlashsalar, shu suhbatdan so'ng Allohning nomi o'sha odam qalbiga naqshlanib qolarkan. Shu sabab bu kishiga Naqshband unvoni berilgan".

Naqshbandiya sulukining boshqa suluklardan bir qancha farqli tomonlari mavjud:

Birinchidan – naqshbandiya suluki qo'l mehnati bilan, halol ter to'kib hayot keehchirishga targ'ib qiladi. Hazrati Xojaning mashhur "dil ba yoru dast ba kor" degan so'zлари ana shuni ifodalaydi. Hazrati Xoja o'z ovqatlarini ziroat orqali topar, erlariga don, sabzi, turp, piyoz ekar, ho'kizlarini ehtiyyotlab asrar, qo'y va sigirlaridan doimo boxabar bo'lib turardilar. Bu esa Rasulullohning sunnatlariga muvofiq edi. Zatan Rasulullohning o'zлари: "haqiqiy musulmon bu dunyoni deb, u dunyosini tashlamaydi, u dunyo deb, bu dunyosini qo'ldan bermaydi", degan edilar. naqshbandiya sulukiga kirgan kishilar oilasini obod qilish, mamlakatga qarash, savdo-sotiq bilan shug'ullanish va boshqa huquqlarga ega bo'lganlar. Shuning uchun ham bu suluk tez rivojlanib, keng yoyilgan.

Ikkinchidan – naqshbandiya sulukidagilar boshqa sulukdagilar kabi «zikri aloniya» bilan emas, balki "zikri xufiya" bilan shug'ullanganlar.

Uchinchidan – naqshbandiya sulukiga mansub valiyarda bemordan kasallikni o'ziga olib, so'ng bu illatni o'zlaridan chiqarib tashlash quvvati mavjud edi. Boshqa suluklarda esa bu bo'lмаган.

To'rtinchidan – naqshbandiya sulukidagi avliyolar karomatfurushlikka keskin qarshi bo'lganlar. Muridning asosiya maqsadi ma'naviy va ruhiy poklanish, Allohga etishish va vahdat hosil qilishdan iborat. Hazrati Xoja musulmonlar og'ir holatga tuShub qolganlaridagina karomat ko'rsatganlar. XVIII-XIX asrlar Movarounnahr va Xurosonda "naqshbandiya" gullagan davri bo'ldi. Naqshbandiyadan keyin tasavvuf tarixida boshqa silsila vujudga kelgan emas. Eron va Hindistonda ayrim yangi tariqatlar shakllangan, lekin ular shaxobchalar bo'lib, tasavvuf uchun yangi nazariy va amaliy yo'nalish bermadi.

Ayrim suluklar, I.P. Petrushevskiy ta'kidlaganidek: "jamiyatda foydali xizmat ko'rsatishdan voz kechib, zohidona xayilotga cho'mgan holda passiv hayot

kechirishni” targ’ib qilsa, boshqa bir tariqat namoyandalari u yoki bu darajada hayotda harakatchanlikka chaqirishgan va faqat foydali mehnat qilishni shior qilib chiqishgan¹⁰⁵.

Islom ta’limotining muqaddas kitobi – «Qur’on»da ilgari surilgan xulq – odob, turmush tarziga oid qarashlar musulmonlar axloqiy tarbiyasining shakllanishiga asos bo’lib xizmat qildi. Barcha musulmon mamlakatlarida «Qur’on»ning sharhlovchilari tomonidan shariat qonun-qoidalari, axloqiy talablarini targ’ib etilishi keyinchalik musulmon adabiyotida axloqiy-didaktik mazmundagi asarlarning paydo bo’lishiga turtki bo’ldi.

Islom barcha musulmon mamlakatlarida bo’lgani kabi Xuroson va Movarounnahrda ham asosiy din hisoblanadi. Shuning uchun xalq hayotida Islom ta’limotida ifodalangan xulq – odob qoidalari mohiyatini chuqur o’rganish asosida yosh avlodda ma’naviy – axloqiy xislatlarni tarbiyalash maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, Muhammad Islom Karruxiyning ta’rifiga ko’ra, komillik - inson degan ulug’ nomga munosiblik, Alloh insoniyatni ana Shu komil insonlar borligi uchun yaratgan, odamlar orasida komil insonlar borligi uchun jami mavjudot odamzodga sajda qiladi, mavjudotlar ichida komil insondan ulug’roq, donoroq va oliyroq narsa yo’q; odamlar koinotning qaymog’i, xulosasi bo’lsalar, komil inson odam-larning qaymog’i va xulosasidir, komil inson olamning siri, olamning qutbi, u - olamning bahri muhiti - dengizi.

Komil insonga Yaratgan tomonidan ko’rsatilgan bunchalik hurmat-e’tiborning, oly ehtiromning boisi, uning ham ilohiy, ham dunyoviy takomilga erishgani uchundir, chunki u «hech kimga xizmatini darig’ tutmaydi, tili, qo’li, moli bilan o’zgalar yordamiga shoshiladi... zero qalb kamolotiga erishib, jannatiy odam nimaiki qilmasin, uning dunyo va oxirati kengayadi». Demak, komil insonlar Allohning suyuk bandalari, chunki ular Yaratganning asl maqsadini ro’yobga chiqarish uchun bunyod bo’lganlar: bu yuksak axloq egalarining har ikki dunyo uchun buyuk xizmatlari jannatni kengaytirish va do’zaxni toraytirishdan iborat. Shu bois ular koinotning sarvari, barcha borliq ular uchun yaratilgan.

¹⁰⁵ Петрушевский И.П. Ислам в Иране в VII-XV веках. – М.1966.- с. 347

Xulosa

Islom madaniyatiga yirik tasavvuf allomalarini etkazib bergen Markaziy Osiyo maktabi faoliyati XII asrdan to XX asr boshlarigacha o'lka ijtimoiy hayotida o'zining yuqori mavqeini saqlab qola oldi, desak xato bo'lmaydi. Bu maktab o'z taraqqiyoti davomida paydo bo'lish, mahalliy madaniyat bilan uyg'unlashish, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda etakchilik qilishdek bosqichlarni bosib o'tdi.

Ushbu tadqiqotda butun islam olamida tasavvuf ta'limoti taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan, XVIII asrda yurtimiz ijtimoiy-madaniy hayotida muhim o'rinn tutgan alloma, Naqshbandiya – Mujaddadiya tariqatining Markaziy Osiyoda keng yoyilishiga sababchi bo'lgan mutasavviflardan Muhammad Islom Karruxiyning hayoti va ilmiy merosi har tomonlama o'rganildi. Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi hududlarida, qolaversa, Markaziy Osiyo ijtimoiy-siyosiy hayotida muayyan nufuzga ega bo'lgan Karruxiy va uning izdoshlari haqidagi ma'lumotlar ilk bora ilmiy tadqiqot doirasiga jalb qilindi. Ilmiy ishni bajarish jarayonida to'plangan tarixiy ma'lumotlar, ularni o'rganish va tahlil qilish natijasida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

XVIII asrning oxiri – XIX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, ayniqsa, Amir Shohmurod Ma'sum davrida hukmron tabaqalarning Naqshbandiya – Mujaddadiya tariqatini qo'llab-quvvatlashi tasavvuf arboblarining jamiyat hayotiga sezilarli ta'sir o'tkazishlariga ham qulay shart-sharoit yaratdi. Buning oqibatida, Naqshbandiya – Mujaddadiya tariqati mintaqada keng quloch yozdi, tariqat qonun-qoidalarini jamiyat talablariga moslashtirish, uni islomning mahalliy xususiyatlariga bog'lab targ'ib qilish kabi omillar yuzaga keldi.

O'rta Osiyo hududdida, asosan, XII – XIII asrlarda rivojlangan Xojagon-Naqshbandiya tariqati XVIII asrga kelib, yangi – Naqshbandiya – Mujaddadiya ko'rinishida taraqqiy topdi. Bunda Mujaddidiya tariqati vakili Muhammad Islom Karruxiy o'zigacha mavjud bo'lgan Naqshbandiya an'analarini chuqur o'rganib, muayyan tariqat maktabini yaratishga muvaffaq bo'ldi;

- Naqshbandiya – Mujaddadiya tariqatining yirik peshvosi sifatida Islom Shayx XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi murakkab siyosiy jarayonlarda muhim mavqeni egalladi. Uning faoliyati o’sha davrda Movarounnahrda vujudga kelgan ijtimoiy-diniy va siyosiy vaziyatning barqarorlaShuvida muhim ahamiyat kasb etdi. Garchi Karruxiyning o’zi siyosiy jarayonlarga bevosita aralashmagan bo’lsa-da, lekin uning ta’limoti va qarashlari shu tariqatni davom ettirgan xalifa Atoulloh, Ne’matulloh, O’zbekxoja Shahrisabziy kabi shaxslarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga faol aralashuvi uchun qulay zamin yaratdi;
- tariqat peshvolari va hukmron tabaqalar o’rtasidagi o’zaro munosabat, shubhasiz, Karruxiyni ham befarq qoldirmagan. Takidlash joizki, uning bu boradagi fikrlari So’fi Ollohyor kabi avvalgi shayxlarning qarashlarini deyarli takrorlab va to’ldirib kelgan. Ayniqsa, XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Muhammad Rahim asos solgan Mang’itlar sulolasiga vakillaridan bo’lgan Muhammad Doniyol va Amir Shohmurod Ma’sum, Amir Haydarlarning hukmronlik yillarida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ushbu tariqat namoyandalarining bevosita rahnamoligi va aralashuvi ostida kechgan;
- Karruxiy haqida bitilgan yozma merosni izchil o’rganish tasavvuf tarixini o’rganishda yangi bosqichga olib chiquvchi benazir ilmiy ahamiyatga ega. XVIII asrda Markaziy Osiyodagi Naqshbandiya – Mujaddadiya tarixi va falsafasini har tomonlama o’rganish bo’yicha ushbu asarlar muhim manba bo’lib xizmat qila oladi;
- Karruxiy qoldirgan tasavvuf ta’limoti, butun bir mintaqasi tarixini o’rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Zero, aynan Islom shayx XVIII asr oxiriga kelib birmuncha susaygan diniy bilimlarni qayta jonlantirdi. U asos solgan maktab XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida Markaziy Osiyo ijtimoiy hayotida diniy-tasavvufiy qarashlarning etakchi o’ringa chiqishida va Naqshbandiya tariqatini yangicha ko’rinishda yana hokimiyat tepasiga kelishida o’ziga xos vazifa bajardi;
- Karruxiyning o’zi targ’ib etgan tariqat masalalariga bag’ishlangan ilmiy-falsafiy asarlar, tasavvufiy tushunchalarni sharhlashi, shogirdlarni tarbiyalab, voyaga etkazishi, umuman olganda, O’rta Osiyo hududida yangi tariqat mакtabiga asos solishi uning keng qamrovli faoliyatidan darak beradi. Garchi Karruxiydan keyingi shayxlar faoliyatida

uning ko'rsatmalariga e'tibor birmuncha susaygan bo'lsa-da, lekin hukmron tabaqalar va omma orasida, boshqacha aytganda, aholining ijtimoiy-siyosiy, diniy hayotida Naqshbandiya – Mujaddadiya asosiy etakchi oqim bo'lib qolaverdi;

– ushbu tariqatning ilk davrida (XVIII asr) mintaqada o'ziga xos ilmiy-tasavvufiy muhit yaratildiki, bu bevosita mazkur tariqatning keyingi rivojlanish darajalarini ham belgilab berdi. Ana shunday ilmiy muhitning yaratilishida, albatta, Karruxiyning o'rni beqiyosdir. Mazkur tariqat an'analari, rasm-rusumlari hozirgi qadar ham O'zbekistonda va Qozog'istonda so'fiy jamoalar amaliyotida qo'llanib kelinadi;

– Karruxiy haqidagi asarlarni batafsil tahlil qilish shundan dalolat beradiki, o'z davrining yirik tasavvufshunos olimi bo'lган. Allomaning mazkur davr ijtimoiy-siyosiy, diniy-madaniy hayotida tutgan o'rni, ma'naviyat rivojidagi, xususan, tasavvuf ta'limotining mahalliy madaniyat qa'riga tobora chuqurroq singib borishida o'ynagan beqiyos roli kompleks tahlil etildi.

– shuningdek, XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyodagi ijtimoiy hayot, o'lkaning turli hududlarida faoliyat olib borgan tasavvuf Shayxlari haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi «Voqeoti Islomiya» va «Tazkirai mashoyixi mutaaxxirini Buxoro» kabi bir qancha qo'lyozma asarlar o'rganildi, hamda ularning mualliflari haqida batafsil ma'lumot berildi;

– Karruxiyning ta'limotida boshqa tariqatlarga nisbatan mo''tadillik, halollik, mehnatsevarlik, kamtarlik, vatanparvarlik, odob-axloq me'yorlariga rioya qilish kabi ko'plab umuminsoniy qadriyatlar targ'ib qilingan. Bular, o'z navbatida, O'zbekiston Prezidentining asarlarida bildirilganidek, asrlar osha xalqimizning milliy qadriyatiga aylangan islom diniga hurmat bilan yondashish, uning ajralmas qismi hisoblangan tasavvuf namoyandalarining hikmatli iboralaridan yosh avlodni insoniylik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi;

Shu bilan birgalikda, Dissertasiyada yoritilgan mavzuning dolzarbligi, ilmiy ahamiyati va yangilikidan kelib chiqib, quyidagi takliflarni kun tartibiga kiritish maqsadga muvofiq deb topildi:

- Karruxiy haqidagi asarlarda ko'tarilgan mavzularning umumiy matnini yaratish va nashrga tayyorlash. Shunda Islom Shayx tomonidan Naqshbandiya – Mujaddadiya tariqatining nazariy tizimiga kiritilgan yangiliklar yaqqol namoyon bo'ladi.
- XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy va diniy vaziyat haqida qimmathli ma'lumotlarni o'zida jamlagan «Voqeoti Islomiya» asarini o'zbek tiliga tarjima qilib, nashr etish. Bu esa, o'z navbatida, nafaqat tasavvuf, balki Vatanimiz tarixini asl manbalar asosida xolisona o'rganish istagida bo'lgan yosh tadqiqotchilar uchun qulay zamin yaratadi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar

1. Каримов И.А. «Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир» Асарлар З – жилд . Т.:Ўзбекистон. 1996 й. З – жилд. – 366 б.
2. Каримов И.А. «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари». Т. Ўзбекистон. 1997 й. – 325 б.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда.–Т.:Ўзбекистон. 2000 й. 350 б.
4. Каримов И.А. «Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз». Тошкент 1999 й. – 31 б.
5. Абул Мухсин Мухаммад Боқир ибн Мухаммад Али «Бахоуддин Балогардон», форсийдан таржима Маҳмудхон Маҳдум Ҳасанхон ўғли. —Тошкент, Ёзувчи, 1993 й. – 207 б.
6. Аҳмад Маҳдум Дониш. Рисола аз таърихи манғития. Нашри давлати. Сталинобод. 1960. стр.375
7. Бартолд В.В. Туркестан в эпоху мангольского нашествия. – Спб, 1903.стр.350
8. Бартолд В.В. Ислам. Общий очерк. – Петроград, 1918.стр.450
9. Бобохонов Ш., Мансуров А. Нақшбандия тариқатига оид қўллўзмалар фиҳристи. – Т.: Мовароуннаҳр, 1993 й. – 128 б.
10. Беляев Е.А. Мусулманское сектанство (исторический очерк). – М.:1957. стр.375
11. Бухорий С.С. Табаррук зиёратгоҳлар. – Т.: Ёзувчи, 1993. – 48 б.
12. Бухорий С.С. «Икки юз етмиш етти пир». Бухоро. 2005. – 304 б.
13. Валихўжаев Б. Ҳожа Аҳори Вали. – С.: Зарафшон, 1993. – 152 б.
14. Валихўжаев Б. Буюк маънавий муршид. – Т.: Фан, 2004. – 169 б.
15. Жапарұлы Б, Омарұлы Ж. Қожы Мәди (Дуана) қожа баласы Бақмуҳаммедтің ұрапқтары. Алматы, 2002 жыл. 172 б.
16. Избранные труды. Т., Фан 1968, том 2. стр.525

17. Имом Бухорий. Саҳиҳи Бухорий (ал-Жомиъ ас-саҳиҳ). 1-китоб. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008 й. – 711 б.
18. Ислам в современной политике стран Востока (конец 70-х – начало 80-х г. XX в.). – М. 1986 г. стр. 470
19. Иззат Султон. Баҳоуддин Нақшбанд абадияти. – Т.: Фан, 1994. – 88 б.
20. Каримов Э.Э. Темур ва Темурийлар даврида диний-мафкуравий вазият. – Темур ва Улугбек даври тарихи. – Т.: Қомуслар бош таҳ., 1996 г. – 250 б.
21. Кули-Заде З.А. Мировозрение Касима Анвара. – Баку: Элм, 1976 г. – 240 б.
22. Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Мовароуннахр-Ўзбекистон, 2009 г. – 448 б.
23. Комилхон Каттаев. Маҳдуми Аъзам ва Даҳбед. Самарқанд. 1994. – 94 б.
24. Кошифий Ҳусайн Воиз. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. – Т.: А. Қодирий ном. халқ мероси нашриёти, 1994 г. – 445 б.
25. Марказий Осиё тарихи: манбашунослик ва тарихнавислик изланишлари. Тошкент. 2010 й. – 495 б.
26. Сейди Али Раис. Миръотул мамолик. Т. 1963. – 162 б.
27. Носир Муҳаммад. Насаф ва Кеш алломалари. Т. 2006. – 124 б.
28. Насафий Азизиддин. Зуббат ул-ҳақойиқ. Н. Комилов таржимаси. Т., Камалак, 1995.
29. Петрушевский И.П. Ислам в Иране в VII-XV вв. – Л.: ЛГУ, 1966 г. – стр. 400
30. Раджабов М. Абдурахман Джами и таджикская философия XV века. – Д.: Ирфон, 1968 г. стр. 318
31. Степанянц М.Т. Философские аспекты суфизма. – М.: ..., 1987 г. стр. 118
32. Турап Усмон. Тасаввуф тарихи. – Т.: Истиқлол, 1999. – 180 б.
33. Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе. Перевод с англ. А.А. Ставиской, под редакцией и с предис. О.Ф. Акимушкина. – М.: Наука, 1989. стр. 326
34. Фаридиддин Аттор. Тазкиратул авлиё. Т. 1997. – 175 б.
35. Фахруддин Али Сафий. Раشاҳоту айнил-хаёт. Т. 2004. – 535 б.
36. Шомурод Шаропов. Қашқадарё зиёратгоҳлари. 1-том. Т. 2010. – 396 б.

37. Ўзбекистон адабиёти тарихи. Тошкент, 1978. «Фан». IV том
38. Куръони карим маъноларининг таржима ва тавсири. Қайта ишланган 2-нашр. Таржима ва тавсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур. – Т.: Тошкент ислом университети, 2006 йил
39. Ҳасаний М., Раззоқова М. Ҳожагон тариқати ва Ҳожа Ҳасан Андоқий. – Т.: Имом ал-Бухорий. Республика илмий-маърифий маркази нашриёти. 2003 й.
40. Ҳамидхон Исломий. Султон ул-орифин Ҳожа Аҳмад Яссавий. Т. 2005. – 39 б.

Gazeta va jurnallar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг «Туркистон-Пресс» нодавлат ахборот агентлиги мухбирига берган интервюсидан // Халқ сўзи, – № 39, 2007 йил 23 феврал. – Б.1.
2. Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2006 йил, 2-сон.
3. Қиличева К. Баҳоуддин Нақшбанд таълимотида таълим-тарбия масалалари // Тил ва адабиёт таълими. 2001 № 1
4. Вяткин В. Из биографии Ходжи Ахрара // Туркестанские ведомости. – Ташкент, 1904. – № 147. стр.692

Qo’lyozma manbalar

1. (محمد فاسیم ابن حسن ال بلخی مَنَّاْقِبُ اسْلَام شیخ) Муҳаммад Қосим ибн Ҳасан ал Балхий. «Маноқиби Ислом Шайх». Хижрий 1315 (1897) йил. ЎзФААБ номидаги Шарқшунослик Институти қўллўзмалар фонди инв\1590
2. (میرزا جنید اللہ حازیق "وَافیاتی اسلامی) Мирзо Жунайдуллоҳ Ҳозик. «Рисолаи Маноқиби Шайхулислом Ҳиротий» (ёки «Воқеоти Исломий»). ЎзФААБ номидаги ШИ қ.ф. инв \12240
3. (رسالی مذاقیبی سلطان کرّخی) «Рисолаи Маноқиби Султон Қаррухий». Мирзо Калимуллоҳ ш.к.
4. (روایح قده) «Равойиҳул – қудс». Комилхон Каттаев ш.к.да

5. «Рисолаи достон». Мирзо Калимуллоҳ ш.к.да
6. «Мусовада» (Каррухийлар хақида). Мирзо Калимуллоҳ ш.к.да
7. محمد خیدر سیلسیلی شریف (مұхаммад Ҳайдар. «Силсилаи шариф». Хижрий 1299 (мил. 1881) йил. Мирзо Калимуллоҳ ш.к.да
8. سیدا کرخی دیوانی غزلیات (سیدا کرخی دیوانی غزلیات) Сайидо Каррухий. «Девони ғазалиёт». ЎФААБ номидаги ШИ қ.ф. инв/1666.
9. ابدلزیز حاج امیر کالائی "تذکیری مشایخی متأحیرینی بخارا" (Абдулазиз Хожа Амир Кулолий. Тазкираи Машойихи мутааххирини Бухоро. 1863 й. ЎФААБ номидаги ШИ қ.ф. инв/79/V
10. شجری سیلسیلی نقشبندی (شجراي سيلسيلي نقشبendi) «Шажараи силсилаи Нақшбандия». ЎФААБ номидаги ШИ қ.ф. инв/5810.
11. ملا محمد نظر ابن ملا محمد اوز ابن حاجی کوزلوك اتا "بستانوں موجین" (ملا محمد نظر. ابن ملا محمد اوز. ابن حاجی کوزلوك اتا "بستانوں موجین") Мулло Мұхаммад Назар ибн Мулло Мұхаммад Аваз ибн Мулло Мұхаммад Яъкуб ибн хожи Кўзлук ота. Бўстонул мужин. Хижрий 1221 (мил. 1806) йил.

Toshbosma manbalar

1. ناسیریدین بوخاری "تحفتوز ظایرین" (Насириддин Бухорий. Тухфатуз – зоъирин. Хижрий 1328 (мил. 1909) йил. Бухоро. тошбосма. форсча-тожикча. 144 саҳифа.)